2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 203 (1802), 2026-yil 30-sentabr, chorshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

HAR BIR G‘ALABA ZAMIRIDA BUYUKLIK ZAKOSI BOR

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 29-sentabr kuni Ko‘ksaroy qarorgohida shaxmat va parashaxmat bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoalari a’zolari bilan uchrashib, ularga davlat mukofotlarini topshirdi.





O‘zbekistonning davlatchilik tarixi qanchalik qadimiy bo‘lsa, o‘zbek xalqining shaxmat bilan bog‘liq tarixi ham ana shunday boy va chuqur ildizlarga ega. Shu bois, shaxmat bugun O‘zbekistonda shunchaki sport turi emas, balki milliy brend darajasiga ko‘tarilgan umumxalq harakati, ta’bir joiz bo‘lsa, yangi avlod intellektual salohiyatining bosh mezoniga aylandi.

So‘nggi yillarda o‘zbek shaxmatchilarining xalqaro maydonda qo‘lga kiritayotgan olamshumul muvaffaqiyatlari dunyo ahlini lol qoldirmoqda. Shu o‘rinda bir jihatga alohida e’tibor qaratish lozim: bu zafarlar aslo tasodifiy emas, balki tarixiy ildizlar, tizimli davlat siyosati va millat genofondidagi yuksak aql-zakovatning amaldagi namoyishidir.

Jahon shaxmat olimpiadasidan qiyos. Qadimiy va navqiron Samarqand shahrida ilk bor o‘tkazilgan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasida milliy jamoamiz erishgan tarixiy g‘alaba — olimpiada chempionligi mamlakatimiz sporti tarixiga oltin harflar bilan muhrlandi.

Tantanali marosimda buni davlatimiz rahbari alohida ta’kidlab, ikki karra olimpiada chempioni degan yuksak va sharafli unvon bilan barchani, butun O‘zbekiston xalqini yana bir bor tabrikladi.

Samarqanddagi olimpiadada 200 dan ortiq mamlakatdan qariyb 2000 shaxmatchi, jumladan, kuchli grossmeysterlar va amaldagi chempionlar jam bo‘ldi.

— Shunday ulkan raqobatda O‘zbekiston bayrog‘ini eng baland ko‘tarish bu haqiqiy jasorat, katta aql-zakovat va mustahkam iroda namunasidir, — dedi davlatimiz rahbari.

Musobaqani bevosita kuzatish uchun Samarqandga 60 mingdan ortiq mehmon kelgani, joylardagi fan-hududlarda qariyb 500 ming muxlis, teleekran va internet orqali esa millionlab vatandoshimiz o‘yinlarni kuzatgani shaxmatga bugun qiziqish nechog‘liq yuqoriligini anglatadi.

Bugun O‘zbekiston dunyodagi eng kuchli shaxmatchilar mamlakatlaridan biriga aylanib ulgurdi. Xalqaro maydonda, sportchilar orasida “o‘zbek shaxmat maktabi” degan atama paydo bo‘ldi. Yosh shaxmatchilarimizning o‘yin uslubini sport mutaxassislari chuqur o‘rganmoqda, tahlil qilmoqda. Namuna sifatida ko‘rsatmoqda. Bular bejiz emas, albatta. Yurtimizda shaxmatning rivojlanishi uzoq tarix, davlatning kuchli qo‘llab-quvvatlovi, e’tibori va yosh avlodning olamshumul g‘alabalari bilan uzviy bog‘liq.

Prezidentimiz marosimda Samarqandda qo‘lga kiritilgan g‘alabada har bir ishtirokchining hissasi katta ekanini qayd etdi. Qatnashchilarni nomma-nom aytib o‘tdi. Xususan, Javohir Sindorovning bir necha oy avval nomzodlar turniridagi tarixiy g‘alabasini esladi. Olimpiadada uning kuchli raqiblar oldida ortga chekinmaganini ta’kidladi.

Yirik musobaqada ilk bor ishtirok etgan Muhiddin Madaminovning hal qiluvchi bahsda jamoamizga oltin medal uchun zarur ochko olib bergani, Shamsiddin Vohidovning amaldagi jahon chempioniga qarshi tengma-teng kurashgani, 17 yoshli Asrorjon Omonovning sakkizta o‘yinda yettita g‘alabaga erishgani mamlakatimizda yetishib kelayotgan iste’dodli shaxmatchilar salohiyatini ko‘rsatadi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON VA ERON PREZIDENTLARI TELEFON ORQALI MULOQOT QILDILAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Eron Islom Respublikasi Prezidenti Mas’ud Pezeshkiyon bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Eron Prezidentini tavallud kuni bilan samimiy tabriklab, unga mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt-saodat va mas’uliyatli davlatchilik faoliyatida ulkan muvaffaqiyatlar tiladi.

Muloqot davomida keng qamrovli hamkorlikni rivojlantirish, xususan, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalardagi aloqalarni yanada faollashtirishga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekiston va Eron Prezidentlari mintaqaviy kun tartibi hamda bo‘lajak tadbirlar rejasi yuzasidan ham fikr almashdilar.

O‘zA

QONUN USTUVORLIGI VA ADOLATNI TA’MINLASH: ISLOHOTLAR, ULKAN NATIJALAR VA PARLAMENTNING HISSASI

Bugun O‘zbekiston o‘z taraqqiyot yo‘lining eng shiddatli va qizg‘in davriga qadam qo‘ymoqda. Chunki ayni paytda mamlakatimizda Prezidentimiz rahbarligida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida barcha soha va tarmoqlarni rivojlantirish, avvalo, inson qadrini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini ta’minlash, Vatanimizning xalqaro nufuzi va obro‘sini yanada oshirish borasidagi tarixiy islohotlar o‘z natijasini bermoqda. Ushbu natijalar har bir oila, har bir vatandoshimiz hayotida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston mustaqillik yillarida murakkab yo‘lni bosib o‘tdi. Ayniqsa, keyingi o‘n yillikda muammolar yechimiga qaratilgan tezkor choralar, shiddatli islohotlar mamlakatimiz yetakchisining inson taqdiriga yuksak g‘amxo‘rligini va bu boradagi qat’iy siyosiy irodasi, oqilona qarorlarini yaqqol ifoda etdi.

Davomi 3-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

O‘QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI MUNOSABATI BILAN TA’LIM-TARBIYA TIZIMIDA ALOHIDA O‘RNAK KO‘RSATGAN XODIMLARDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Yangi O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, sohada islohotlar samaradorligini oshirish, o‘quv jarayoniga ilg‘or tajribalar, innovatsion pedagogik va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ishlariga qo‘shayotgan munosib hissasi, o‘quvchi yoshlarga zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni o‘rgatish, ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ma’nan yetuk, sog‘lom va barkamol avlodni shakllantirish yo‘lidagi katta xizmatlari, farzandlarimizni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash borasidagi ibratli faoliyati, ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki, shuningdek, yurtimizda ta’limga oid investitsiya loyihalarini amalga oshirib kelayotgani uchun quyidagilar mukofotlansin:

“O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi” faxriy unvoni bilan

Saidov Ergash Allanazarovich — Denov tumanidagi 6-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Saparbayev Azimbay Saburovich — Amudaryo tumanidagi 36-umumiy o‘rta ta’lim maktabining matematika fani o‘qituvchisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi” faxriy unvoni bilan

Shamukaramov Kamil Tuygunovich — Chinoz tumanidagi 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabining tasviriy san’at va chizmachilik fani o‘qituvchisi, Toshkent viloyati

Xakimova Raxima Salijonovna — Namangan shahridagi 4-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Namangan viloyati

Davomi 2-betda



ISTE’DODLAR YURTI

Shaxmat taxtasiga o‘xshaydi hayot,
Ha, u ham oq-qora rangdan iborat.
Ikkalasiga ham g‘alaba — najot,
Ikkisi ham faqat jangdan iborat.

Hislar to‘qnashadi bunda beayov,
Ehtiroslar jo‘shar misoli dovul.
Yutqazar bunda kim bo‘lsa bejilov,
Yutar kimda idrok bo‘lsa bakovul.

Pokiza qadamdan qolar nurli iz,
Barcha amal bog‘liq eng pok niyatga.
Qanday quvonmaylik farzandlarimiz,
O‘smoqda ko‘nmasdan mag‘lubiyatga.

Yurt otasi ilhaq g‘alaba xohlab,
Samarqanddan har on xushxabar kutdi.
Yaratganga shukr, ishonchni oqlab,
“Oltin avlod” barcha raqibni yutdi.

Ajdodlariga mos avlod ongida,
Tafakkur quyoshi charaqlayverar.
Bu quyosh yuz ochsa, Vatan tongida,
El yuzi yanada yaraqlayverar.

Go‘zal mujdalardan xalqimiz mamnun,
Deymiz yoshlar ko‘kka tug‘ ilaversin!
Nodir iste’dodlar yurtida har kun,
Javohir farzandlar tug‘ilaversin!

Botirjon ERGASHEV

Keyingi yillarda mamlakatimizda shaxmat shunchaki sport emas, millatning intellektual salohiyatini yuksaltirish vositasi sifatida ko‘rildi. Bu borada shaxmatning maktabgacha ta’lim va maktab dasturlariga kiritilishi inson kapitaliga yo‘naltirilgan eng samarali investitsiya bo‘ldi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 30-sentabr, 203-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

FARMONI

O‘QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI MUNOSABATI BILAN TA’LIM-TARBIYA TIZIMIDA ALOHIDA O‘RNAK KO‘RSATGAN XODIMLARDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni bilan

Raimov Ismatulla — Zomin tumanidagi 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabining jamoatchilik kengashi raisi, Jizzax viloyati

Soleyev Axmadjon — Samarqand davlat universitetining o‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan ixtirochi va ratsionalizator” faxriy unvoni bilan

Kurbonov Mirtemir Shodiyevich — O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti direktorining ilmiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sport ustozi” faxriy unvoni bilan

Muqimov Botirbek Ashurovich — Oltinko‘l tumanidagi 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi, Andijon viloyati

Najmidinov Vaxiddin Ergashevich — Sportning qishki va murakkab texnik turlari bo‘yicha Respublika oliy sport mahorati maktabining bahodirlar o‘yinlari va tosh ko‘tarish bo‘limi murabbiysi

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” faxriy unvoni bilan

Uteyeva Gulnora Lukmanovna — R. Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabining o‘zbek xalq cholg‘ulari bo‘limi jo‘rnavozi

“Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan

Mamajanov Alijon — Farg‘ona davlat universitetining tilshunoslik kafedrasi professori, Farg‘ona viloyati

Meliyev Abduhalim Xurramovich — Samarqand shahridagi “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan 59-maktab-internati direktori, Samarqand viloyati

Muxamedbayeva Zamira Abduljaparovna — Toshkent kimyo-texnologiya institutining Yangiyer filiali kimyoviy texnologiyalar kafedrasi professori, Sirdaryo viloyati

Nishanov Nurmuxamad Xajimamatovich — Uchqo‘rg‘on tumanidagi 8-umumiy o‘rta ta’lim maktabining geografiya fani o‘qituvchisi, Namangan viloyati

Ochilov Shuxrat Saidovich — Buxoro tumani sport maktabining dzyudo bo‘yicha murabbiysi, Buxoro viloyati

“Mehnat shuhrati” ordeni bilan

Yo‘ldashev Dilmurod Karimjonovich — Shahrixon tumani ixtisoslashtirilgan maktabining fizika fani o‘qituvchisi, Andijon viloyati

Ko‘chkinov Ziyodullo Axmedovich — Bandixon tumani ixtisoslashtirilgan maktabining tasviriy san’at fani o‘qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Mirtadjiyeva Karamat Taxirovna — O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Astronomiya instituti laboratoriya mudiri

Sayimova Sarsengul Alpisbayevna — Qorao‘zak tumanidagi 9-umumiy o‘rta ta’lim maktabining o‘zbek tili fani o‘qituvchisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Safarov Eshkabul Yuldashovich — O‘zbekiston Milliy universitetining geodeziya, kartografiya va kadastr kafedrasi professori

Uzakov Zair — Qarshi davlat texnika universiteti kompyuter tizimlarining dasturiy va texnikaviy ta’minoti kafedrasi professori, Qashqadaryo viloyati

I darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan

Vinogradova Valentina Ivanovna — O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining O‘simlik moddalari kimyosi instituti katta ilmiy xodimi

Gofurova Saodat Musayevna — Marg‘ilon shahridagi 29-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Farg‘ona viloyati

Pardayev Shukurulla Bozorovich — Boyovut tumanidagi 3-umumiy o‘rta ta’lim maktabining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi, Sirdaryo viloyati

Usmanova Nargiza Mirzadavlatovna — Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 190-ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Toshkent shahri

Yaxshiyeva Zuxra Ziyatovna — Jizzax davlat pedagogika universitetining tabiiy fanlar fakulteti dekani, Jizzax viloyati

II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan

Abdullayeva Gulnoz Xasanovna — Urganch tumani ixtisoslashtirilgan maktab-internatining biologiya fani o‘qituvchisi, Xorazm viloyati

Bekmurodova Sojida O‘ralovna — Yakkasaroy tumanidagi 160-ixtisoslashtirilgan maktabining texnologiya fani o‘qituvchisi, Toshkent shahri

Isxakova Mavlyuda Raxmanovna — Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti

Muratova Gulbaxor Kamilevna — Yunusobod tumanidagi “Erudite education” nodavlat ta’lim muassasasi rahbari, Toshkent shahri

Nurova Nargiza Tashevna — Karmana tumanidagi alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan 25-maktab-internatining yakka eshitish fani o‘qituvchisi, Navoiy viloyati

Xakimova Abidaxon Azimjonovna — Asaka tumanidagi 57-umumiy o‘rta ta’lim maktabi direktori, Andijon viloyati

Xoliqov To‘raqul Jo‘rayevich — G‘ijduvon tumanidagi 28-umumiy o‘rta ta’lim maktabining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi, Buxoro viloyati

Shodiyev Bektosh Shokirovich — Kattaqo‘rg‘on tumanidagi 1-ixtisoslashtirilgan maktabining matematika fani o‘qituvchisi, Samarqand viloyati

“Do‘stlik” ordeni bilan

Angela Papenburg — Germaniya Federativ Respublikasining “GP Günter Papenburg AG” kompaniyasi direktorlar kengashi a’zosi

Bayriyeva Almagul Qurbanovna — Qoraqalpoq davlat universitetining siyosatshunoslik va ma’naviyat asoslari kafedrasi mudiri

Begisheva Laura Dyusheyevna — Xonobod shahridagi 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Andijon viloyati

Buzikova Gulsina Fayazovna — Yashnobod tumanidagi “Diplomat international school” nodavlat ta’lim muassasasining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Toshkent shahri

Imamov Erkin Zunnunovich — Toshkent axborot texnologiyalari universitetining fizika kafedrasi professori

Kan Lyudmila Nikolayevna — Yashnobod tumanidagi 10-bolalar musiqa va san’at maktabining fortepiano sinfi o‘qituvchisi, Toshkent shahri

Kandregula Ganga Bhavani Santosh Kumari — O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Xorijiy mutaxassislarni jalb qilish bo‘yicha ekspertlar kengashi a’zosi

Mattias Klingenberg — Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ)ning “O‘zbekistonda kasbiy ta’lim tizimini isloh qilish va modernizatsiya qilish jarayonini qo‘llab-quvvatlash” loyihasi rahbari

Muratkin Valeriy Nikolayevich — Bektemir tumanidagi 1-sport maktabining yo‘riqchi-uslubchisi, Toshkent shahri

Razova Batpa Pazilovna — Bo‘stonliq tumanidagi 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabining biologiya fani o‘qituvchisi, Toshkent viloyati

Sattorov Bobonazar Nuftillayevich — Kasbi tumani 1-texnikumi direktori, Qashqadaryo viloyati

Fu Zengzheng — O‘zbekiston-Xitoy kasbiy ta’lim alyansi bosh kotibining o‘rinbosari

II darajali “Salomatlik” ordeni bilan

Abdurafikova Dildora Abduvaxidovna — Ohangaron shahridagi alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan 7-maktab logopedi, Toshkent viloyati

Abduraxmonova Nigora Xudoyberdiyevna — Abu Ali ibn Sino nomidagi Termiz jamoat salomatligi texnikumi direktorining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari, Surxondaryo viloyati

Mamarasulov To‘lqinjon Mirzayevich — Qarshi davlat universitetining tibbiyot fakulteti kafedra mudiri, Qashqadaryo viloyati

Turdiboyev Abdug‘ani Abdug‘apporovich — Farg‘ona shahridagi nogironligi bo‘lgan bolalar uchun “G‘amxo‘rlik” markazi direktori, Farg‘ona viloyati

“Mardlik” ordeni bilan

Allambergenova Nigora Gulmurzayevna — Qonliko‘l tumanidagi 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabining o‘zbek tili fani o‘qituvchisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Musayev Mirzaxmat Baymatovich — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Ot sporti bo‘yicha respublika oliy sport mahorati maktabi murabbiysi

Kushmurotov Elmurot Jurakulovich — “University of innovation technologies” nodavlat ta’lim muassasasi ta’sischisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Safarov Suhrobjon Yangiboy o‘g‘li — Jarqo‘rg‘on tumani sport maktabi direktori, Surxondaryo viloyati

Yunusov Axmadali Xaydaraliyevich — Uchko‘prik tumani 2-texnikumining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi, Farg‘ona viloyati

“Sog‘lom turmush” medali bilan

Aliyeva Nargiza Ziyodillayevna — Navoiy pedagogika texnikumining pedagogika psixologiyasi fani o‘qituvchisi, Navoiy viloyati

Boboyev Po‘lat Jumaboyevich — Hazorasp tumanidagi 8-umumiy o‘rta ta’lim maktabining geografiya fani o‘qituvchisi, Xorazm viloyati

Gadoyev Azizbek Ilxomovich — Guliston shahridagi “Bolajonlar xonadonim quvonchi” oilaviy bolalar uyi rahbari, Sirdaryo viloyati

Yevstafyeva Oksana Shukurovna — Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 190-ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Toshkent shahri

Mukumova Shaxnoza Buranovna — Qarshi ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabining musiqa nazariyasi va fortepiano bo‘limi o‘qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

Pardayeva Gavhar Doniyorovna — Samarqand shahridagi Prezident maktabining kimyo fani o‘qituvchisi, Samarqand viloyati

Umirzakov Alisher Abdikasimovich — Ohangaron tumanidagi “Ilg‘or kichkintoylar” oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari, Toshkent viloyati

Xalmatov Komil Turniyazovich — Respublika velosport mahorat maktab-internati direktori

Ergasheva Firyuza Davlatovna — Kogon shahridagi “Anisaoy” oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi, Buxoro viloyati

“Jasorat” medali bilan

Yembergenova Gulnara Joldasbayevna — Nukus shahridagi “Baxtli oila” oilaviy bolalar uyi rahbari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Ziyotov Farrux Saodilla o‘g‘li — Qarshi shahridagi “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan 18-maktab-internatining ingliz tili fani o‘qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

Karshiyeva Gulnoza Turakulovna — Tomdi tumani ixtisoslashtirilgan maktab-internatining matematika fani o‘qituvchisi, Navoiy viloyati

Ro‘zmetova Laylo Xudoyorovna — Nurobod tumanidagi 78-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Samarqand viloyati

“Sodiq xizmatlari uchun” medali bilan

Mamatova Nazokat Sharipbayevna — Urganch shahridagi alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan 32-maktab-internati direktori, Xorazm viloyati

Mo‘minov Fazliddin Xusniddin o‘g‘li — O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Yig‘ma-axborot va hududiy masalalarni muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i

Rasulov Sodiq Sa’dullayevich — Iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash “Ulug‘bek” jamg‘armasi direktorining o‘rinbosari

Tolipov Shoxjaxon Ulug‘bek o‘g‘li — Buvayda tumanidagi “Vint” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Farg‘ona viloyati

Xamdamov Nodir Muxamatovich — Kogon shahridagi “Akbarjon barakat” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Buxoro viloyati

“Kelajak bunyodkori” medali bilan

Abdubekova Madina Rovshan qizi — Yunusobod tumanidagi 1-bolalar musiqa va san’at maktabining vokal sinfi o‘qituvchisi, Toshkent shahri

Atoyev Abubakir Izzatillo o‘g‘li — Buxoro davlat texnika universitetining elektr va energetika muhandisligi kafedrasi o‘qituvchisi, Buxoro viloyati

Sangirov Jumaniyoz Alijon o‘g‘li — O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutining Yosh olimlar kengashi raisi o‘rinbosari

Xasanov Azizbek Erkin o‘g‘li — Navoiy shahridagi 1-ixtisoslashtirilgan maktab-internatining matematika fani o‘qituvchisi, Navoiy viloyati

Shukurullayeva Mohinur Baxrom qizi — Taxiatosh tumanidagi 6-maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Yuldashev Farrux Xudayarovich — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligining raqamlashtirish va axborot texnologiyalari guruhi rahbari

“Shuhrat” medali bilan

Abdiyeva Turdigul Abdujabbarovna — Samarqand shahridagi 80-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Samarqand viloyati

Avlakulov Davron Olimovich — Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning informatika fani o‘qituvchisi, Toshkent shahri

Alibayeva Barno Musurmonovna — Do‘stlik tumanidagi 10-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Jizzax viloyati

Alimova Saodatxon Toyirovna — Quva tumanidagi 66-umumiy o‘rta ta’lim maktabining rus tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi, Farg‘ona viloyati

Axmatova Karomat Abdulazizovna — Yunusobod tumanidagi 259-umumiy o‘rta ta’lim maktabining fizika fani o‘qituvchisi, Toshkent shahri

Axmetova Shaxnoza Tolkunovna — Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 210-umumiy o‘rta ta’lim maktabining o‘zbek tili fani o‘qituvchisi, Toshkent shahri

G‘iyosov Xasan Mamirovich — Sharof Rashidov tumani ixtisoslashtirilgan maktabining informatika fani o‘qituvchisi, Jizzax viloyati

Ismoilova Odinaxon Abdukaxxarovna — Izboskan tumanidagi 19-umumiy o‘rta ta’lim maktabining iqtisod fani o‘qituvchisi, Andijon viloyati

Yo‘ldosheva Nasiba Maxsud qizi — Gurlan tumanidagi “Yo‘ldosheva Nasiba” oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi, Xorazm viloyati

Kamalov Ne’matjon Bahodirovich — Bog‘ot tumani ixtisoslashtirilgan maktabining matematika fani o‘qituvchisi, Xorazm viloyati

Kattayeva Shahnoza Shodiyevna — Navoiy shahridagi 18-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ingliz tili fani o‘qituvchisi, Navoiy viloyati

Kurbanova Iroda Djalalovna — Qo‘qon shahridagi 1-ixtisoslashtirilgan maktabining matematika fani o‘qituvchisi, Farg‘ona viloyati

Qulmanova Nodira Eshdavlat qizi — Jarqo‘rg‘on tumani ixtisoslashtirilgan maktabining biologiya fani o‘qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Mengliyeva Xursand Rajabovna — Nishon tumanidagi 35-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

Mirxamitova Dilorom Xudayberdiyevna — Olmaliq davlat texnika institutining metallurgiya va kimyoviy texnologiyalar fakulteti dekani, Toshkent viloyati

Murodova Marziya Majitovna — Vobkent tumanidagi 18-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Buxoro viloyati

Pardayeva Yulduz Ibragimovna — Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Sirdaryo viloyati

Sadinov Abror Samadovich — Paxtachi tumani 1-texnikumi direktori, Samarqand viloyati

Sadullayeva Nigora Ruslanovna — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimidagi Ko‘p funksional inklyuziv-resurs markazi direktorining o‘rinbosari

Sangirova Zamira Bozorboyevna — Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazining pedagogik mahorat va inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i

Sobitov Axmadjon Marxamatovich — Mirobod tumanidagi “Novda Edutainment” yangi avlod darsliklarini tayyorlash jamiyati rahbari, Toshkent shahri

Sulaymonov Tal’at Xayotjonovich — Yangiobod tumanidagi 7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi direktori, Jizzax viloyati

Temirova Adolat Avazxanovna — Yangiyo‘l agrotexnologiyalar texnikumining ishlab chiqarish ta’limi ustasi, Toshkent viloyati

Tohirov Doniyor Baxtiyor o‘g‘li — Chust tumani ixtisoslashtirilgan maktabining kimyo fani o‘qituvchisi, Namangan viloyati

Umarova Muazzam Ergashevna — Shahrisabz tumanidagi 6-umumiy o‘rta ta’lim maktabining tarix fani o‘qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

Umarova Saidaxon Pulatovna — Yangiqo‘rg‘on tumanidagi 10-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ingliz tili fani o‘qituvchisi, Namangan viloyati

Urunov Anvar Jamoliddinovich — Namangan shahridagi “LSL school” xususiy maktabi direktori, Namangan viloyati

Xolxodjayev Boxodir Asatullayevich — Toshkent davlat texnika universitetining oliy matematika kafedrasi dotsenti

Xudoyberdiyev Dilshod Anorboy o‘g‘li — Toshkent shahridagi Prezident maktabining kimyo fani o‘qituvchisi

Choriyeva Nilufar Shaydullayevna — Muzrabot tumanidagi 34-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Surxondaryo viloyati

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **SH. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2026-yil 29-sentabr

HAR BIR G‘ALABA ZAMIRIDA BUYUKLIK ZAKOSI BOR

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari ayollar terma jamoalarimiz ham olimpiadada katta iroda va matonat ko‘rsatganini ta’kidladi. Birinchi jamoa 11 turning yettitasida g‘alaba qozonib, dunyoning kuchli shaxmat mamlakatlari vakillari bilan tengma-teng bahs olib bordi. Afruza Hamdamova, Gulruhbegim Tohirjonova, Umida Omonova, Nilufar Imomqo‘ziyeva, Guldona Karimova va boshqa shaxmatchi qizlarning mehnati alohida e’tirof etildi.

O‘zbekiston olimpiadada erkaklar va ayollar o‘rtasida jami oltita terma jamoa bilan qatnashdi. Erkaklar o‘rtasidagi ikkinchi jamoamiz jahon reytingida oltinchi o‘rinda turgan Niderlandiya terma jamoasini yirik hisobda mag‘lub etdi. Davlatimiz rahbari buni ham muhim yutuq deb baholadi.

— Bizda 2-3 nafar shaxmatchi emas, balki butun boshli kuchli avlod bor, desak, bu ham haqiqat, — dedi Prezidentimiz. Bu avlod va uning ortidan kelayotgan yoshlar jahon shaxmatida hali ko‘plab yutuqlarga erishishiga ishonch bildirdi.

Mamlakatimizda sportni ommalashtirish, jumladan, shaxmatni rivojlantirishga qaratilayotgan alohida e’tibor va bu borada yaratib berilayotgan zamonaviy sharoitlar natijasi o‘laroq, shaxmatchilarimiz Chennay — 2022 olimpiadasidan keyin jonajon O‘zbekistonimizda ikkinchi bor chempionlikni qo‘lga kiritdi. Qisqa muddatda ikkinchi bor shunday yuksak g‘alabaga erishish o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi, albatta. Nazarimizda, buning ikkita asosiy sababi bor.

Birinchisi, O‘zbekiston zamini azaldan ilm-fan va tafakkur markazi bo‘lib kelgan. Dunyo tamadduniga mislsiz hissa qo‘shgan ko‘plab daholarni yetishtirgan bu yurtda fikrlash, mantiq va strategiya madaniyati asrlar davomida shakllangan.

Shaxmat insondan faqat donalar surishni emas, balki chuqur sabr, mustahkam xotira, aniq hisob-kitob, strategik tafakkur va yengilmas irodani talab etadi. Bugungi yosh grossmeysterlarimiz erishayotgan olamshumul muvaffaqiyatlar zamirida ana shu buyuk meros bor. Boshqacha aytganda, ularning qonida buyuk ajdodlarimizning intellektual kodi va mantiqiy fikrlash geni yashamoqda. Natijada bugungi avlod vakillari dunyoning eng kuchli aql sohiblariga qarshi hech qanday hayajonsiz dona surmoqda.

Xalqimiz tabiatan shoshma-shosharlikni yoqtirmaydi. Yetti o‘lchab, bir kesish amali milliy falsafamizga chuqur singib ketgani boisi ham shunda bo‘lsa kerak. Bu xususiyat shaxmat taxtasida eng og‘ir, tang vaziyatlarda ham grossmeysterlarimizning raqibdan ustun kelishini ta’minlamoqda.

Ikkinchisi, o‘zbek shaxmatining oltin davri boshlanishiga eng katta turtki bergan omil sohaga davlat darajasida qaratilgan e’tibor va tizimli siyosatdir.

Shaxmat kabi murakkab san’atning mamlakat miqyosida ommalashishi faqat iqtidorlilarga bog‘liq emas. Buning uchun kuchli tizim va qo‘llab-quvvatlovchi muhit kerak. Agar mamlakatimizda shaxmat rivoji uchun yetarli sharoit va to‘g‘ri tizim yaratilmaganida milliy genofonddagi yuqori salohiyat yashirincha qolib ketardi, ehtimol.

Keyingi yillarda mamlakatimizda shaxmat shunchaki sport emas, millatning intellektual salohiyatini yuksaltirish vositasi sifatida ko‘rildi. Bu borada shaxmatning maktabgacha ta’lim va maktab dasturlariga kiritilishi inson kapitaliga yo‘naltirilgan eng samarali investitsiya bo‘ldi. Zero, davlatimiz rahbarining bevosita tashabbusi bilan bolalikdanoq mantiqiy fikrlaydigan avlod ulg‘ayishi uchun poydevor qo‘yildi.

Mamlakatimizda iste’dodli shaxmatchilar ko‘p bo‘lgan. Biroq ilgari ularni qo‘llab-quvvatlaydigan va birlashtiradigan tizim yetishmasdi. So‘nggi yillarda sportning ushbu turini rivojlantirish va ommalashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘lami kengaydi. Xususan, Prezidentimizning 2021-yil 14-yanvardagi “Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida tizimli islohotlar amalga oshirildi. Shaxmat aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilinib, uni ommaviy sport turiga aylantirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodning intellektual va madaniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Iqtidorli yoshlarni tanlash, saralab olish va ularni professional shaxmatchilar hamda xalqaro grossmeysterlar sifatida tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yildi. Trenerlar uchun munosib mehnat sharoiti yaratildi. Qisqasi, O‘zbekiston shaxmat maktabini yaratish ishlari yanada mustahkamlandi.

Bugungi g‘alabalar, yutuqlar, e’tiroflar, hozir 17 shaxmatchimiz xalqaro grossmeyster unvoniga sazovor bo‘lgani ana shunday sa’y-harakatlar samarasidir.

Mamlakatimizda bu borada tajriba yetarli, qo‘lga kiritilayotgan natijalar kam emas. Kelajagimiz bo‘lgan o‘smirlarga, yoshlarga namuna, aql, bilim, sabr, intizom va g‘alabaga ishonch timsoli vazifasini o‘taydigan chempionlarimiz bor. Muhimi, yutuqlar bilan cheklanib qolinmaydi. Har bir viloyat, tuman va mahallada iqtidorli bolalarni erta aniqlash, kuchli ustozlarga biriktirish va xalqaro turnirlarda muntazam qatnashishiga sharoit yaratiladi. Qizlar shaxmati va parashaxmatni rivojlantirish bo‘yicha alohida tizim tashkil etiladi.

Yosh shaxmatchilarni tayyorlash imkoniyatini kengaytirish uchun Toshkent xalqaro shaxmat akademiyasining Samarqand, Xorazm va Farg‘onada hududiy filiallari ochiladi. Akademiyada oliy toifali murabbiylarni tayyorlash tizimi ham yo‘lga qo‘yiladi.

FIDE reytingida 1500 dan yuqori ball to‘plagan shaxmatchilarning xususiy klublarda o‘qish xarajatining yarmi davlat tomonidan qoplab beriladi. Bu yosh iste’dodlilarning tayyorgarligini davom ettirishiga qo‘shimcha imkoniyat yaratadi.

Mamlakatimizda “O‘zbekiston Grand chess” milliy brendi ostida xalqaro turnirlar muntazam o‘tkaziladi. Bu shaxmatchilarimizga kuchli raqiblar bilan yurtimizda bellashish imkonini beradi.

Umuman olganda, shaxmatchilarimizning Samarqandda erishgan tarixiy muvaffaqiyati shunchaki medallar shodasi emas. Bu xalqimiz genofondida mudrab yotgan intellektual kuchning tizimli davlat siyosati ko‘magida ro‘yobga chiqishidir. Shaxmat xalqimizning jahon maydonida kuch bilan emas, aql, sabr va strategik tafakkur bilan yetakchilik qila olishini isbotlagan eng noyob ijtimoiy fenomenga aylandi.

Kecha Prezidentimiz Vatanimiz shuhratini yuksaltirishga qo‘shgan hissasi, mahorati va jasorati uchun bir guruh shaxmatchilar, ularning ustozlari va soha vakillarini davlat mukofotlari bilan taqdirlagan edi. Tadbirda mazkur mukofotlar o‘z egalariga tantanali topshirildi.

Uchrashuvda sportchilar, ularning ota-onalari, ustoz va murabbiylari so‘zga chiqib, davlatimiz rahbariga shaxmat sohasiga qaratilayotgan e’tibor va yaratilgan keng sharoitlar, yuksak e’tirof uchun chuqur minnatdorlik bildirdi.

Mamlakatimizdagi ulug‘vor o‘zgarishlarga, yoshlarimiz zakosidagi qudratli evrilishga hamohang o‘tgan uchrashuv yakunida Prezidentimiz terma jamoalar a’zolari va ularning ota-onalari bilan birgalikda suratga tushdi.

Dilshod ULUG‘MURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Yangi O‘zbekiston ruhi

QONUN USTUVORLIGI VA ADOLATNI TA’MINLASH: ISLOHOTLAR, ULKAN NATIJALAR VA PARLAMENTNING HISSASI

Nuriddin ISMOILOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz boshchiligidagi keng ko‘lamli islohotlar nafaqat davlat boshqaruvini, balki xalqimiz tafakkurini, hayotimiz falsafasini, qonun ustuvorligiga doir qarashlarni hamda eng asosiysi, barchamizning dunyoqarashimizda inson qadriga munosabatni tubdan o‘zgartirdi.

Davlatimiz rahbarining xalqni sevish va Vatanga sidqidildan xizmat qilishdek oliy saodatga yo‘g‘rilgan shaxsiy namunasi Yangi O‘zbekiston ruhiga aylandi.

35 yillik sarhisobdan — yangi taraqqiyot bosqichiga

Yaqindagina yurtimiz hayotidagi eng ulug‘, eng qutlug‘ sana — O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi bayrami Vatanimizning barcha hududida baland ruh va ko‘tarinki kayfiyatda kutib olindi.

Bu yil ushbu tarixiy sana yangi O‘zbekistonning bugungi ulkan salohiyati va jahon maydonidagi nufuziga muvofiq “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan bosh g‘oya asosida keng nishonlandi. Ayniqsa, asosiy bayram tadbirining Vatanimiz faxri bo‘lgan Yangi Toshkentda o‘tkazilgani unga o‘zgacha shukuh bag‘ishladi.

Barcha bayramlarimiz munosabati bilan Prezidentimiz tabrigida qilingan ishlar va rejalarning bayon etilishi o‘ziga xos institutga aylandi. Ammo oldingilaridan farqli o‘laroq davlatimiz rahbarining mustaqillikning 35 yilligi tantanalarida so‘zlagan nutqi dasturiy ahamiyatga ega bo‘ldi.



Prezidentimiz mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining mutlaqo yangi davriga qadam qo‘yayotganini, kelgusi 10 yillik biz uchun milliy yuksalish davri bo‘lishini alohida ta’kidladi. Shu maqsadda inson qadrini yanada yuksaltiradigan 7 ta milliy dastur amalga oshirilishini e’lon qildi.

Chuqur mazmun, teran tahlilga tayangan barcha tashabbus va vazifalar xalqimiz farovonligi va Vatanimiz taraqqiyotining strategik maqsadlarini aks ettirdi. Aynan shuning uchun ham ushbu nutqni xalqimiz juda katta ko‘tarinkilik va olqish bilan qarshi oldi. Ya’ni bugungi islohotlar hamda barchamizning oldimizda turgan ustuvor vazifalar yaxlit siyosiy tizimga birlashtirildi.

Prezidentimiz mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining mutlaqo yangi davriga qadam qo‘yayotganini, kelgusi 10 yillik biz uchun milliy yuksalish davri bo‘lishini alohida ta’kidladi. Shu maqsadda inson qadrini yanada yuksaltiradigan 7 ta milliy dastur amalga oshirilishini e’lon qildi.

Ushbu milliy dasturlar ta’lim va tibbiyotdan tortib, yuqori texnologiyali iqtisodiyot, ekologiya, adolat, mahalla va tashqi siyosatgacha bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlarni yagona maqsad atrofida birlashtiradi.

Asl qudrat mezoni — yangilanishlar markazida

Prezidentimizning nutqi uzoq va yaqin tariximizning saboqlari, yangi O‘zbekiston islohotlari va kelgusi taraqqiyot maqsadlarini uyg‘un holda namoyon etdi.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, bugungi O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘li aniq. Bu — tinchlik, do‘stlik va hamkorlik, inson qadrini ulug‘lash, bilim va ma’rifatga tayanish yo‘li. Prezidentimizning tantanali bayram tadbiridagi ma’ruzasi ayni mana shu oliy maqsadning ruhini aks ettirdi.

Bir vaqtlar Vatan ozodligi va milliy istiqlolni orzu qilgan ajdodlarimizning ezgu niyatlari bugun mustaqil davlatchiligimizni mustahkamlash, ochiq va pragmatik tashqi siyosat yuritish, zamonaviy ta’limni rivojlantirish va inson kapitalini yuksaltirishga qaratilgan islohotlarda o‘z ifodasini topmoqda.

Ayni paytdagi murakkab va ziddiyatli dunyoda tinchlik va barqarorlikni asrash hayot-mamot masalasidir. Prezidentimizning siyosiy irodasi, o‘ziga xos samimiy muloqoti, doim tinchlik va barqarorlikka intilishi natijasida keyingi o‘n yilda mintaqada nafaqat tinchlik ta’minlandi, balki barcha xalqning manfaatiga mos keluvchi abadiy do‘stlik va hamkorlik rishtalari qat’iy mustahkamlandi.

Albatta, mamlakatimiz yetakchisining ushbu yo‘nalishdagi harakatlari va tashabbuskorligi ortida inson manfaati, hayot sifatini yaxshilash kabi ulug‘ maqsadlar turibdi. Zero, O‘zbekistondagi islohotlarning natijasi, avvalo, “Insonlar hayoti yaxshilanishi kerak!” degan bosh mezonga asoslanganini butun dunyo ko‘rmoqda va e’tirof etmoqda.

Darhaqiqat, har qanday davlatning haqiqiy qudrati inson qadri, huquq va manfaatlari qay darajada ta’minlangani bilan belgilanadi.

Inson qadrining huquqiy kafolati

Endi Oliy Majlis quyi palatasining qonun ijodkorligi faoliyati yanada qizg‘in kechishi tabiiy. Chunki Prezidentimiz nutqida ilgari surilgan, kelgusi yillarda inson qadrini yanada yuksaltiradigan 7 ta milliy dasturning beshinchisi — sud mustaqilligini kuchaytirish va qonun ustuvorligini umumiy qadriyatga aylantirishga qaratilgan.

Inson qadrini yuksaltirish, huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, adolatni ta’minlash va islohotlarning barqarorligini kafolatlash, eng avvalo, qonun ustuvorligiga tayanadi. So‘nggi o‘n yillikda inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, jamiyatda adolat va tenglik tamoyillarini mustahkamlash borasidagi islohotlar mamlakatimiz taraqqiyotining muhim yo‘nalishiga aylandi.

Bu jarayon, eng avvalo, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda o‘z ifodasini topdi. Bosh qonunimizda O‘zbekiston — huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekani qat’iy belgilab qo‘yildi. Shuningdek, inson huquq va erkinliklarining bevosita amal qilishi, qonunchilikdagi bartaraf etib bo‘lmaydigan ziddiyat va noaniqliklarni inson foydasiga talqin qilish kabi muhim prinsiplar mustahkamlandi. Bu inson erki va qonuniy manfaatlari davlat siyosatining ustuvor mezoni ekanining huquqiy ifodasidir.

Shu bois, Konstitutsiyada belgilangan ushbu tamoyillarni hayotga tatbiq etishga qaratilgan qonunchilik va institutsional islohotlar izchil davom ettirilmoqda. Ayniqsa, sud-huquq tizimida shaxsning huquqlarini kafolatlash, qiynoqlarning oldini olish, majburiy mehnatga barham berish, xotin-qizlar va bolalar huquqlarini himoya qilish borasida salmoqli ishlar qilindi.



Mamlakatimiz mustaqilligining 35 yillik taraqqiyot tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, qonun ustuvorligi faqat huquqiy tizimning vazifasi emas. U inson qadri, jamiyatdagi ishonch, davlat boshqaruvining samaradorligi va mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta’minlaydigan umumiy qadriyatdir.

Odil sudlovga erishish, sudlarning mustaqilligini ta’minlash va insonlarning buzilgan huquqlarini tiklash imkoniyatlarini kengaytirish islohotlarning muhim yo‘nalishiga aylandi. Sud tizimi mustaqilligini ta’minlash, sudyalar faoliyatiga aralashuvning oldini olish, ularning maqomi va ijtimoiy kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan qator qonunlar qabul qilindi. Sud jarayonlarining ochiqligi va raqamlashuvini ta’minlash bo‘yicha tizimli choralar ko‘rildi.

Ma’muriy sudlarning tashkil etilishi esa fuqarolar va tadbirkorlarning davlat organlari tomonidan qabul qilingan noqonuniy qarorlar, amalga oshirilgan harakatlar yoki yo‘l qo‘yilgan harakatsizlik ustidan sud orqali himoyalanish imkoniyatlarini kengaytirdi. Advokatura institutining rolini kuchaytirish, yuridik yordamdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ham inson huquqlarini ta’minlashning muhim kafolatlaridan biriga aylandi.

Shuningdek, Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslarga, Jinoyat-protsessual, Iqtisodiy protsessual va Fuqarolik protsessual kodekslariga sud qarorlari va ajrimlari ustidan shikoyat qilishning yangi instituti — ishlarni taftish tartibida ko‘rib chiqishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Bu esa odil sudlovga erishish va buzilgan huquqlarni tiklash mexanizmlarini yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Inson huquqlarini ta’minlash masalasi, tabiiyki, xotin-qizlar va bolalar huquqlarini ishonchli himoya qilishni ham qamrab oladi. Keyingi yillarda xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi o‘rni va nufuzini yanada oshirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini kafolatlashga qaratilgan qonunchilik asoslari sezilarli darajada mustahkamlandi.

Jumladan, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlarning qabul qilinishi xotin-qizlar va bolalarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirdi.

Bola huquqlarini himoya qilishning tashkiliy va institutsional asoslarini mustahkamlash maqsadida Oliy Majlisning Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) instituti tashkil etildi. Deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilib, qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to‘g‘risida”gi qonun bilan uning huquq va majburiyatlari, faoliyatining asosiy yo‘nalishlari hamda kafolatlari belgilab berildi.

Bugun esa qonun ustuvorligi tushunchasi an’anaviy huquqiy munosabatlar doirasidan yanada kengayib bormoqda. Raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha sohasiga jadal kirib kelayotgan bir sharoitda kiberjinoyatchilik, shaxsiy ma’lumotlardan g‘ayriqonuniy foydalanish, odam savdosi, giyohvandlik kabi yangi va murakkab xavflarga qarshi samarali huquqiy mexanizmlarni shakllantirish ham dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, keyingi yillarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan huquqbuzarliklar va kiberjinoyatlarga qarshi kurashishni kuchaytirish, shaxsiy ma’lumotlarni muhofaza qilish va ulardan g‘ayriqonuniy foydalanganlik uchun javobgarlikni takomillashtirishga qaratilgan qonunlar qabul qilindi. Bu borada javobgarlikning aniqlashtirilishi va yangi huquqiy mexanizmlarning joriy etilishi raqamli muhitda fuqarolar huquqlarini himoya qilishning muhim kafolati bo‘lmoqda.



Shu bilan birga, giyohvandlikka qarshi kurash ham davlat siyosati darajasida kuchaytirilmoqda. Ayniqsa, sintetik narkotiklarning tarqalishi, internet orqali yashirin sotilishi, noqonuniy narkolaboratoriyalar faoliyati kabi zamonaviy tahdidlar bu borada yangi yondashuvlarni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda bu xavflarning oldini olish maqsadida profilaktika, erta aniqlash, yoshlarni giyohvandlik ta’siridan himoya qilish, davolash va reabilitatsiya tizimini takomillashtirish bilan bir qatorda narkotik vositalarning noqonuniy muomalasiga qarshi huquqiy choralar ham izchil kuchaytirilmoqda. 2025-yilda giyohvandlik va narkojinoyatlarning barvaqt oldini olish hamda ularga qarshi kurashish bo‘yicha 2025-2026-yillarga mo‘ljallangan kompleks amaliy harakatlar milliy dasturi tasdiqlandi. Bugun ushbu milliy dastur asosida chora-tadbirlar ijrosi izchil davom ettirilmoqda.

Joriy yil iyunda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki ularning analoglarining va kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning qonunga xilof muomalasi uchun javobgarlikni takomillashtirishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun esa ushbu yo‘nalishdagi huquqiy mexanizmlarni yanada kuchaytirdi.

Unda narkotik vositalar, psixotrop moddalar, ularning muqobillari hamda kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning qonunga xilof muomalasi uchun javobgarlik takomillashtirildi. Jinoyat kodeksiga “Aholi salomatligi va genofondiga qarshi jinoyatlar” nomli yangi bob kiritilishi, noqonuniy narkolaboratoriyalar tashkil etish, narkotiklar muomalasiga rahnamolik qilish kabi qilmishlar uchun alohida javobgarlik belgilanishi bu sohadagi yondashuv yanada qat’iylashganini ko‘rsatadi.

Eng muhimi, bugungi yondashuv faqat jinoyat sodir etilgandan keyin jazo qo‘llash bilan cheklanmayapti. Giyohvandlikning oldini barvaqt olish, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, xavf guruhidagi shaxslar bilan profilaktik ishlarni kuchaytirish, davolash va reabilitatsiya imkoniyatlarini kengaytirish kabi choralarga ham yagona tizim sifatida qaralmoqda. Shu ma’noda, giyohvandlikka qarshi kurashish nafaqat huquq-tartibot organlari, balki ta’lim, sog‘liqni saqlash, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligini talab etadigan umummilliy vazifaga aylanmoqda.

Chuqur siyosiy mazmunga ega vazifa

Mamlakatimiz mustaqilligining 35 yillik taraqqiyot tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, qonun ustuvorligi faqat huquqiy tizimning vazifasi emas. U inson qadri, jamiyatdagi ishonch, davlat boshqaruvining samaradorligi va mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta’minlaydigan umumiy qadriyatdir.

Shu ma’noda, Prezidentimiz tomonidan kelgusi bosqich uchun qonun ustuvorligini umumiy qadriyatga aylantirish vazifasining belgilanishi chuqur siyosiy mazmunga ega. Shu maqsadda huquqiy tarbiyani maktabdan boshlash, fuqarolar va tadbirkorlarning qonuniy kafolatlarini yanada kuchaytirish, sud mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha islohotlarni izchil davom ettirish vazifasi qo‘yilmoqda.

Ayni paytda jamiyat xavfsizligiga tahdid solayotgan kiberjinoyatchilik, giyohvandlik va odam savdosining oldini olish, yashirin iqtisodiyot va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, xotin-qizlar va bolalar huquqlarini ishonchli himoya qilish bo‘yicha choralarni yangi bosqichga olib chiqish ham mazkur vazifalarning uzviy davomidir.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi bu boradagi islohotlarning huquqiy asoslarini yaratish, jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va qonun ijodkorligi sifatini yanada oshirish yo‘nalishidagi ishlarga alohida mas’uliyat bilan yondashadi.

Avvalo, oldimizda istiqlol yillaridagi islohotlarning ahamiyatini hamda kelgusidagi ustuvor vazifalarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, davlatimiz rahbari ilgari surgan milliy dasturlarni amalga oshirishda parlamentning faol ishtirokini ta’minlashdek muhim vazifa turibdi. Deputatlarimiz davlatimiz rahbarining ma’ruzasida belgilangan barcha vazifalar mazmun-mohiyatini xalqimizga keng tushuntirmoqda. Bu yo‘nalishdagi ishlarni yanada samarali tashkil etish maqsadida shu yil 7-sentabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi kengashining tegishli qarori qabul qilindi hamda “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.

“Yo‘l xaritasi”da parlamentimizning milliy yuksalish davri islohotlarini izchil amalga oshirishga o‘z hissasini qo‘shishga qaratilgan muhim chora-tadbirlar belgilandi. Bu esa parlamentning qonun ijodkorligi faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi. Bugungi tarixiy islohotlar davrida mamlakatimiz oldida yanada katta rejalar, ulkan maqsadlar va yuksak marralar turibdi.

Prezidentimiz davlatimiz mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida alohida ta’kidlaganidek, o‘ttiz besh yillik mustaqil taraqqiyot yo‘limiz bizga bir haqiqatni o‘rgatdi: xalq va davlat yagona maqsad yo‘lida birlashib, astoydil harakat qilsa, zabt etib bo‘lmaydigan marraning o‘zi yo‘q.

Bugun milliy parlament ham ana shu umumiy maqsadning muhim bo‘g‘ini sifatida o‘z zimmasidagi mas’uliyatni chuqur anglagan holda faoliyat yuritishi zarur. Xalq vakillari bo‘lgan deputatlar korpusi va milliy parlamentimiz bundan buyon ham mamlakatimizning birdamligini, yuksak taraqqiyotga jips holda erishish yo‘lidagi umumiy maqsad va orzu-intilishlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Zero, qonun ustuvorligi va adolatni ta’minlash, yurt ravnaqi, mamlakat taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi, eng asosiysi, inson qadrini yanada yuksaltirish barchamiz uchun umumiy maqsaddir.

Bugungi kunda energetika jahon iqtisodiyotining eng tez o‘zgarayotgan va strategik ahamiyati tobora ortib borayotgan sohalaridan biriga aylandi. Iqtisodiyotning raqamlashuvi, sanoat ishlab chiqarishining kengayishi, elektr transporti rivojlanishi, aholi turmush darajasi yuksalishi va ekologik talablar kuchayishi energiyaga ehtiyojni muttasil oshirmoqda. Shu bois, taraqqiy etgan davlatlar an’anaviy energetika modelini qayta ko‘rib chiqib, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya saqlash tizimlari, intellektual tarmoqlar va raqamli boshqaruv texnologiyalariga asoslangan yangi energetik tizimni shakllantirmoqda.



Tahlil

ENERGETIKADA TEXNOLOGIK MUSTAQILLIK

Mamlakatimizda quyosh va shamol energetikasi jadal sur’atlarda kengaymoqda. Bugungi kunda umumiy quvvati 5602 megavatt bo‘lgan 21 ta “yashil” elektr stansiya, jumladan, 15 ta quyosh va 6 ta shamol elektr stansiyasi ishga tushirildi.



Ikromjon RAHMONOV,
texnika fanlari doktori,
professor

O‘zbekistonda ham energetika sohasi iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi infratuzilmaviy asoslaridan biri sifatida jadal rivojlanmoqda. So‘nggi yillarda elektr energetikasida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, elektr va gaz tarmoqlarini modernizatsiyalash, xususiy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy qilish bo‘yicha katta hajmdagi ishlar amalga oshirildi. Qisqa fursatda sohaga qariyb 23 milliard dollar miqdorida to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya jalb etildi. Umumiy quvvati 9,5 gigavatt bo‘lgan elektr stansiyalar ishga tushirildi, elektr va gaz tarmoqlari, podstansiyalar, transformatorlar hamda gaz taqsimlash qurilmalarini yangilashga 30 trillion so‘m yo‘naltirildi.

Natijada 2016-2025-yillarda O‘zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etdi. Xususan, 2016-yilda respublikada 59 milliard kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2020-yilda 66,4 milliard kVt/soatga, 2022-yilda 74,3 milliard kVt/soatga, 2024-yilda 81,5 milliard kVt/soatga va 2025-yilga kelib 86,7 milliard kVt/soatga yetdi. Ya’ni o‘n yil davomida elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 27,7 milliard kVt/soat yoki qariyb 46 foiz oshdi. Mazkur dinamika iqtisodiyot va aholining elektr energiyasiga ehtiyojlarini ta’minlash maqsadida energetika sohasida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish va mavjud quvvatlarni rivojlantirish bo‘yicha bajarilgan keng ko‘lamli ishlar samarasidir.

Aynan shu sharoitda qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda quyosh va shamol energetikasi jadal sur’atlarda kengaymoqda. Bugungi kunda umumiy quvvati 5602 megavatt bo‘lgan 21 ta “yashil” elektr stansiya, jumladan, 15 ta quyosh va 6 ta shamol elektr stansiyasi ishga tushirildi.

Tanlash, boshqarish va rivojlantirish

Energetika sohasida erishilayotgan bunday natijalar iqtisodiyot uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Biroq energetika tizimi qanchalik katta va texnologik jihatdan murakkab bo‘lib borsa, uning qanday texnologiyalarga tayanishi masalasi shunchalik muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy energetika faqat elektr stansiyaning o‘zi emas. U quyosh modullari, shamol turbinalari, invertorlar, energiya saqlash qurilmalari, kuch elektronikasi, transformator va kommutatsiya jihozlari, raqamli himoya, avtomatlashtirish, monitoring, dispetcherlik va sun’iy intellektga asoslangan boshqaruv tizimlaridan iborat ulkan texnologik zanjirdir.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston energetikasini rivojlantirishning navbatdagi bosqichida faqat yangi generatsiya quvvatlarini ishga tushirishning o‘zi yetarli emas. Endi asosiy masalalardan biri ushbu quvvatlarning texnologik poydevori qay darajada milliy iqtisodiyot, mahalliy sanoat, ilm-fan va muhandislik salohiyatiga tayanayotganini ta’minlashdir. Zero, energetika iqtisodiyotning tayanch sohasi ekan, uning kritik texnologiyalar bo‘yicha uzoq muddatli tashqi qaramligi mamlakatning energetik xavfsizligi va iqtisodiy barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

O‘zbekiston energiya resurslari bilan birga o‘z ilmi, muhandisligi va texnologiyalariga tayangan energetika tizimini shakllantira olsa, bu mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyoti uchun eng muhim strategik ustunliklardan biriga aylanadi.



Bugun O‘zbekistonda barpo etilayotgan ko‘plab zamonaviy “yashil” energetika obyektlarida xorijiy investitsiya, texnologiyalar va uskunalar muhim o‘rin tutmoqda. Bu jarayon energetika tizimini qisqa muddatda modernizatsiyalash, ilg‘or jahon tajribasini olib kirish va yangi quvvatlarni tez ishga tushirish uchun katta imkoniyat yaratdi. Biroq uzoq muddatli istiqbolda mamlakat faqat tayyor texnologik yechimlarni iste’mol qiluvchi emas, balki ularni o‘zlashtira oladigan, mahalliy sharoitga moslashtiradigan, ishlab chiqaradigan va yangi avlodini yaratadigan davlatga aylanishi zarur.

Shu ma’noda, energetikada texnologik mustaqillik tashqi dunyodan texnologik jihatdan uzilish yoki barcha uskunalarni to‘liq mamlakat ichida ishlab chiqarish degani emas. U, eng avvalo, strategik va kritik texnologiyalar bo‘yicha milliy kompetensiyalarni shakllantirish, xorijiy texnologiyalarni o‘zlashtirish va mahalliylashtirish, zarur uskunalarni loyihalash, ishlab chiqarish, ekspluatatsiya qilish, ta’mirlash va modernizatsiyalash qobiliyatiga ega bo‘lishni anglatadi. Ya’ni haqiqiy texnologik mustaqillik tanlash, boshqarish va rivojlantirish imkoniyatining mamlakatning o‘zida bo‘lishidir.

Sanoat va fan integratsiyasi

Xorijiy texnologiyalar va investitsiyalar energetika taraqqiyoti uchun muhim resurs. Ammo kritik uskunalar, ehtiyot qismlar, dasturiy ta’minot va servis xizmatlari bo‘yicha mutlaq tashqi qaramlik qator xavflarni keltirib chiqarishi mumkin. Global bozordagi narxlar o‘zgarishi, logistika zanjirlari uzilishi, geosiyosiy vaziyat, eksport cheklovlari yoki muayyan ishlab chiqaruvchining bozordan chiqishi energetika obyektlarining ishonchli ekspluatatsiyasiga ta’sir qilishi ehtimoli bor.

Bundan tashqari, importga yuqori darajada bog‘liqlik har bir yangi energetika loyihasida katta miqdordagi valyuta resurslarini talab etadi. Agar texnologiyalar tayyor holda doimiy ravishda chetdan keltirilsa, mahalliy elektrotexnika, mashinasozlik, elektronika, dasturiy ta’minot va injiniring tarmoqlari rivoji uchun mavjud iqtisodiy imkoniyatlar to‘liq ishga tushmay qolishi hech gap emas. Aksincha, mahalliylashtirish darajasi ortishi yangi ish o‘rinlari, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar va milliy texnologik kompaniyalar paydo bo‘lishiga zamin yaratadi.

Masalaning yana bir muhim jihati — raqamli mustaqillik bilan bog‘liq. Zamonaviy elektr energetikasida boshqaruv qarorlari tobora ko‘proq ma’lumotlar, raqamli platformalar, avtomatlashtirilgan dispetcherlik tizimlari, prognozlash algoritmlari va sun’iy intellekt texnologiyalariga tayanmoqda. Shuning uchun texnologik mustaqillik faqat “temir” yoki uskuna ishlab chiqarish bilan cheklanmasligi kerak. Energetik ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash, algoritmlar, dasturiy ta’minot va intellektual boshqaruv platformalari bo‘yicha ham milliy yechimlarni shakllantirish strategik ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda texnologik bazani shakllantirish uchun muayyan sanoat, ilmiy va kadrlar salohiyati mavjud. Elektrotexnika, metallurgiya, mexanika, mashinasozlik, elektronika va polimer materiallar ishlab chiqarish tarmoqlari mavjudligi qayta tiklanuvchi energetika uskunalarining ayrim elementlari va butlovchi qismlarini bosqichma-bosqich mahalliylashtirish imkonini beradi. Dastlab konstruktiv elementlar, kabel mahsulotlari, elektr shkaflari, metall konstruksiyalar, transformator va kommutatsiya jihozlaridan boshlab keyinchalik invertorlar, kuch elektronikasi, energiya saqlash modullari va boshqaruv tizimlarigacha bo‘lgan texnologik zanjirni chuqurlashtirish mumkin.

Bu jarayonda mahalliylashtirishning o‘zi ham maqsad emas. Asosiy vazifa — texnologiyani tushunish, uni takomillashtirish va keyingi avlod mahsulotini yarata oladigan ilmiy-muhandislik muhitini shakllantirish. Shu sababli mahalliy ishlab chiqarish ilmiy tadqiqot, konstruktorlik ishlari, tajriba-sinov bazasi va sertifikatlash tizimi bilan birgalikda rivojlanishi kerak. Faqat shunda import o‘rnini bosish oddiy yig‘ish jarayonidan haqiqiy texnologik kompetensiyaga aylanadi.

Xalqaro hamkorlik aynan shu maqsadga xizmat qilishi lozim. O‘zbekiston Xitoy, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Fransiya, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlar bilan energetika sohasida yirik loyihalarni amalga oshirmoqda. Endi bunday hamkorlikda investitsiya va tayyor uskuna bilan birga texnologiya transferi, qo‘shma ilmiy-tadqiqot markazlari, mahalliy mutaxassislarni tayyorlash, litsenziyalash va qo‘shma ishlab chiqarish mexanizmlariga yanada katta e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston energetikasi bugun sifat jihatdan yangi bosqichga kirdi. Yangi elektr stansiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya saqlash tizimlari va zamonaviy elektr tarmoqlari ishga tushirilishi mamlakatning energetik salohiyatini sezilarli darajada oshirmoqda. Bu jarayon iqtisodiy o‘sish, aholi farovonligi va sanoatning raqobatbardoshligi uchun mustahkam energetik asos yaratadi.

Biroq energetika taraqqiyotining uzoq muddatli samarasi faqat ishga tushirilgan quvvatlar bilan emas, balki ushbu tizimni mamlakatning o‘zi qay darajada boshqara olishi, unga xizmat ko‘rsata olishi, texnologiyalarni o‘zlashtirishi va kelgusida mustaqil ravishda rivojlantira olishi bilan ham belgilanadi. Shuning uchun “yashil” energetikaga o‘tish bilan texnologik mustaqillikni ta’minlash bir-biridan ajralmas strategik vazifalar sifatida qaralishi lozim.

O‘zbekiston uchun eng maqbul yo‘l jahonning ilg‘or texnologiyalariga ochiq bo‘lgan holda ularni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish, milliy sanoat va ilm-fan bilan integratsiya qilish hamda kritik yo‘nalishlarda o‘z texnologik kompetensiyalarini yaratishdir. Ana shunda xorijiy investitsiyalar faqat yangi energetika obyektlarini emas, balki mamlakat ichida yangi bilim, yangi sanoat, yangi muhandislik maktabi va yuqori texnologiyali ish o‘rinlarini ham shakllantiradi.

Energetikada texnologik mustaqillik shunchaki uskunani mamlakatda ishlab chiqarish masalasi emas. Bu energetik xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik, raqamli suverenitet, milliy innovatsion salohiyat va kelajak avlodlar uchun raqobatbardosh iqtisodiyot yaratish masalasidir. O‘zbekiston energiya resurslari bilan birga o‘z ilmi, muhandisligi va texnologiyalariga tayangan energetika tizimini shakllantira olsa, bu mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyoti uchun eng muhim strategik ustunliklardan biriga aylanadi.

Hayotiy tashabbuslar qanotida

“MAHALLA YETTILIGI” – IQTISODIY O‘SISH VA IJTIMOIY BIRDAMLIK ASOSI

Navoiy viloyatining Karmana tumanidagi Allon mahallasi azaldan mehnatkash, mirishkor, ishning ko‘zini biladigan aholisining tashabbuskorligi bilan ajralib turadi. “Mahalla yettiligi” ko‘magida ular barqaror daromadga ega bo‘lib, qator yutuqlarga erishib kelmoqda.



— Mahallamizda 3760 nafar fuqaro yashaydi, — deydi Allon mahallasi raisi Sardor Jo‘rayev. — Yil boshidagi xatlovda ishsiz 69 fuqaro borligi aniqlandi. Hozirgacha ulardan 40 nafari ishli bo‘ldi. Qolganlarini ham tadbirkorlik, chorvachilik va boshqa yo‘nalishlarga jalb qilish choralari ko‘rilmoqda. Yil yakuniga qadar ishsizlikdan to‘liq xoli mahallaga aylanishni maqsad qilganmiz. Shuningdek, kam ta’minlangan 51 oilaga har tomonlama ko‘mak berilib, ularni kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha ishlanmoqda. Aholi daromadini oshirishga alohida e’tibor qaratilyapti. Ularning farzandlarini maktabgacha ta’limga, maktab yoshidagilarini to‘garaklarga jalb qildik. Mahallamizda 7 ta ichki yo‘l bor. Ularning barchasi “Tashabbusli budjet” mablag‘lari hisobidan to‘liq asfalt qilindi. Mahallamiz jinoyatchilikdan xoli hududga aylangan.

Mahalla xalqimizning ko‘p asrlik qadriyatlari, hamjihatlik va o‘zaro yordam an’analari mujassam bo‘lgan muhim ijtimoiy maskandir. U jamiyat va davlat o‘rtasidagi yaqin ko‘prik vazifasini bajaradi. Mahallada aholining muammolari o‘rganiladi, ehtiyojmand oilalar qo‘llab-quvvatlanadi, yoshlar va xotin-qizlar bilan alohida ishlanadi.

Allon mahallasida yashovchi Risolat aya Arabova ikki yil ilgari “yettilik” ko‘magida tomorqasida issiqxona qurgan edi. Hozir mehnati ortidan barqaror daromad topmoqda.

— Shu mahallada 43 yildan buyon yashayman, — deydi Risolat Arabova. — Hozir 3 sotix issiqxonamiz bor. Bodring ekkanmiz, hosil cho‘g‘i baland. Mehnatimiz sabab bir yilda 60 million so‘m daromad qilamiz. Ayni vaqtda issiqxonamizni yanada kengaytirish harakatidamiz. Tomorqamizning qolgan qismiga ham issiqxona qursak, daromadimiz yanada oshadi.

Risolat ayaga yon qo‘shni bo‘lgan Dilbar Islomova ham “mahalla yettiligi” ko‘magidan mamnun. Unga ajratilgan 50 million so‘m kreditga chevarlik faoliyatini rivojlantirdi. U bajarayotgan bichish-tikishga talab doim yuqori.

— Yoshligimdan chevarlikka qiziqqanman, — deydi Dilbar Islomova. —Farzandli bo‘lib, uyda qolganimda hunarim asqatdi. Bitta tikuv mashinasi bilan ish boshladim. Buyurtmalar ko‘paygach, faoliyatimni yanada kengaytirish uchun mahalla mas’ullari ko‘magida imtiyozli kredit olib, yangi tikuv mashinalari xarid qildim. Shogirdlarimni ish bilan ta’minladim. Hozir yana 100 million so‘m kredit olib, ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ymoqchiman.

Albatta, oilada ayol ham ish bilan band bo‘lsa, turmush farovonligi oshadi. Farzandlar mehnatga o‘rganadi. Umuman, jamiyatda ayollar faolligi yaxshi natijalarga asos ekani haqiqat. Buni o‘tgan yillardagi islohotlar va ularning ijobiy natijalarida ko‘p bora guvoh bo‘lyapmiz.

— Mahallamizdagi xotin-qizlardan 88 nafari “Ayollar daftari”ga kiritilgan, — deydi Allon mahallasi faoli Iroda G‘ulomova. — Ularni ish bilan ta’minlash va barqaror daromadga ega qilish uchun barcha choralarni ko‘ryapmiz. Shuningdek, xotin-qizlarimiz orasida jinoyatchilik va oilaviy ajralishlarning oldini olish bo‘yicha oilaviy qadriyatlar komissiyasi raisi bilan hamkorlikda ishlayapmiz. Bu borada bizga nuroniylar katta ko‘mak bermoqda. Joriy yilda ajrashishga ariza topshirgan 7 ta oiladan 6 tasini yarashtirishga erishdik.

Mahallaning faxri ahil oila, faol fuqaro va undan o‘rnak olib ulg‘aygan yosh avloddir. Buni dasturilamal deb bilgan “mahalla yettiligi”ning har bir mas’uli o‘z ishida doim sobit.

— Mahallamiz aholisi dehqonchilikdan tashqari chorvachilikda ham yaxshi natijalarga erishmoqda, — deydi Allon mahallasidagi hokim yordamchisi Dostonbek Eshpo‘latov. — Yaqinda Mo‘g‘ulistondan keltirilgan zotli qo‘ylarni band bo‘lmagan aholiga tarqatdik. Hozir boshqa fuqarolarimiz ham qo‘shimcha daromad olish maqsadida ushbu qo‘ylardan xarid qilmoqda. Chorvachilik rivojlanishi ortidan tadbirkorga sut mahsulotlarini mahallamizning o‘zida qayta ishlash taklifini berdik. Hozir tadbirkor bu bo‘yicha o‘z hisobidan 15 ming dollarlik loyihani amalga oshirmoqda.

Bugun “mahalla yettiligi” xalq tayanchi. Berilgan imkoniyat sabab tashabbuslar ular tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Pirovardida aholining mahalla mas’ullari timsolida islohotlarga ishonchi ortib bormoqda.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

TADBIRKORLIK TAVAKKALCHILIK EMAS



Oramizdagi odamlar

Bugun chiqindilarni boshqarish sohasida aholi, tadbirkor va davlat manfaatlarini uyg‘unlashtirish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Surxondaryo viloyatidagi “BIO TEXNO EKO” MCHJ ayni shu yo‘nalishda faoliyat yuritadi. Tadbirkor Ilhomjon Boqijonov chiqindilarga ikkinchi hayot berish orqali tabiatni asrashga hissa qo‘shmoqda.

Qahramonimiz shu ishni birdan boshlab qolgani yo‘q. U talabalik davridayoq yer yuzida chiqindilar bilan bog‘liq masalalarni qiziqish bilan kuzatib borardi. To‘qqiz yil davomida chiqindilarni qayta ishlash sirlarini o‘rgandi. Bu izlanishlar unga bir haqiqatni anglatdi: tadbirkorlikning asosi tavakkalchilik emas, ilmda!

Dastlab Termiz shahri, Termiz va Angor tumanlaridagi 96 ta mahalla ahliga sanitar-tozalik xizmati ko‘rsatila boshlandi. Keyingi qadam esa soha uchun muhim yangilik bo‘ldi. Respublikada birinchi bo‘lib Angor tumani Qoraqir massividagi 4 gektar yerda zamonaviy texnologiyali, bir kunda 500 tonna chiqindini saralash va qayta ishlash quvvatiga ega zavod qurildi.

Prezidentimiz mazkur zavodga tashrif buyurib, faoliyatga e’tibor qaratgani tadbirkor uchun katta ishonch va yanada yuksak mas’uliyat manbaiga aylandi. Bu ishonch ortidan yangi tashabbuslar davom etdi. Faoliyat yanada kengayib, chiqindilarni tashish, saralash va qayta ishlash korxonalari Qashqadaryo va Andijon viloyatlarida ham ochildi, aholiga sifatli xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi.

— Tadbirkorlik faqat daromad olishdan iborat emas. Elga naf keltirish, yangi ish o‘rni yaratib, jamiyat farovonligiga xizmat qilish haqiqiy tadbirkorlikdir, — deydi Ilhomjon Boqijonov. — Shu niyatda nafaqat sanitar-tozalik korxonalari, balki Toshkent, Andijon, Samarqand va Termiz shahrining bir necha mahallalaridagi ko‘p qavatli uylarda boshqaruv-servis kompaniyalarini ham tashkil etdik. Qurilish tashkilotimiz bor. Bundan tashqari, chiqindilardan polietilen quvur ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yganmiz. Bog‘dorchilik va hunarmandlikka asoslangan loyihalarimiz mavjud.

Tadbirkor xalqaro hamkorlikka alohida e’tibor bilan qaraydi. Jumladan, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy va Germaniya vakillari bilan kelishuvlar asosida bir necha loyiha doirasida ishlamoqda. Natijada unga qarashli korxona va tashkilotlarda 3500 ishchi-xodim mehnat qilmoqda. Hozir tadbirkor ishini yanada rivojlantirish uchun kadrlar masalasini kun tartibiga chiqardi. U yosh xodimlarini xorij tajribasini o‘rganish uchun chet elga o‘qishga yubormoqda.

Chiqindilarni boshqarish sohasidagi faoliyat bilan bir qatorda yangi yo‘nalishlarda ham tashabbuslar ilgari surilmoqda. Joriy yil boshida tadbirkor Sherobod tumanidagi Xo‘jaikon tuz koni imkoniyatlaridan unumli foydalanish, atrofida turizm va sog‘lomlashtirish maskanini tashkil etishga qaratilgan loyihasiga start berdi. “KapaYurt” nomi berilgan bu loyiha bo‘yicha qurilish ishlari 2035-yilga qadar davom etadi. Loyiha doirasida tuz g‘orlari, tuz ko‘llari, tuzli uylar, o‘rmon, hayvonot bog‘i va MICE turizm maskani tashkil etiladi.

Ayni paytda mavjud tuz zaxirasini qazib olish va qadoqlash yo‘lga qo‘yilib, mahsulot xorijga eksport qilinmoqda. Buning uchun Germaniyada savdo uyi tashkil etildi. Hindistonda ham shunday do‘kon ochish loyihasi boshlangan.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni

ASRLARNI QOLDIRIB DOG‘DA...

100 YOSHDA HAM DARS BERAYOTGAN MUALLIM QISSASI

Poytaxtdan yo‘lga chiqqan tezyurar poyezd voha tomon ildamlar ekan, yuragimni hayajon va entikish qamrab oldi. Olis manzilni ko‘zlab ketarkan, inson yo‘l-yo‘lakay zalvorli o‘ylarga cho‘madi. Bunday paytda o‘tgan umring ko‘z oldingdan o‘tadi-yu, xayolan uni taftish eta boshlaysan. Umr degan ne’matni har kim o‘zicha yashab o‘tadi: kimdir uni hoyu havaslarga sarflasa, yana kimdir har bir lahzasini qadrlab, insonlarga yaxshilik ilinish, ziyo tarqatish va savob ishlar qilishga oshiqadi.



Zilola XO‘JANIYOZOVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi


Yaqinda ijodkor do‘stlarimiz bilan suhbatlarning birida vohada yuz yosh bilan yuzlashgan, 75 yildan buyon muallimlik qilib kelayotgan otaxon haqida eshitib, hayratga tushdim. Yetmish besh yil bu — bir insonning butun boshli umri. Bu yillarni ma’rifat va ta’limga bag‘ishlash esa chinakam fidoyilikdir. Shubhasiz, bu yillar ortidagi qanchadan qancha zahmat, beorom kunlar ko‘z oldimdan o‘tdi. Bu fidoyi otaxonni ziyorat qilish hamda suhbatini olish maqsadida Qashqadaryo tomon safarga otlandim.

Koson tumanidagi Surxon mahallasida istiqomat qilayotgan Egamshukur bobo Abdiyev shu yoshida ham maktabga qatnab, o‘quvchilarga fizika va matematika fanlaridan dars beradi. Yuzida olis yillarning suronli shamoli o‘z izini qoldirgan bo‘lsa-da, ko‘zida yashash zavqi, so‘nmas shijoat porlab turibdi. Bu insonni ko‘rganimda, suhbatini tinglaganimda “Chinakam inson umri aslida mana shunday bo‘lmog‘i kerak” degan havas va hayrat yuragimni qamrab oldi.

Bobo bilan suhbatimiz juda samimiy kechdi. Olis bolalik yillarini eslar ekan, otaxon men bilan xuddi yuz yillik qadrdondek gap boshladi:

— E bolam, qadimgilar “Bosh qattiqmi, tosh qattiqmi?” degan savolga “Bosh qattiq” deb javob bergan ekan. Men ham o‘z zamondoshlarim qatori o‘sha suronli yillarning necha-necha og‘ir va ayanchli kunlarini ko‘rdim. Aslida, bobolarim Qarshining o‘ziga to‘q, badavlat kishilaridan bo‘lgan. Sho‘rolar kelgach, Begimqul bobomning bor mol-mulki, yeri, oltin-kumushlariyu suruv-suruv chorvasini tortib olib, o‘zini Tojikiston tomonlarga “quloq” qilib yuborgan. Jon saqlash maqsadida ular ko‘p yillar tog‘ma-tog‘ ko‘chib yurgan. Bu davrda oilamiz juda ko‘p qiyinchiliklarni boshdan kechirdi. Hatto o‘sha joylarda ham tinch qo‘ymay, bobomni Sibirga surgun qilishdi. Men o‘sha og‘ir davrda, ya’ni 1926-yilning 5-fevralida Tojikiston Respublikasining Ko‘lob tumanida tug‘ilganman. Ko‘p yillik sargardonlikdan so‘ng otam va amakilarim yana yurtga qaytishga intilib, Surxondaryoga kelib joylashgan. Otam juda baquvvat, mehnatdan qochmaydigan, chayir inson edi. U aka-ukalari va yaqinlarini jamlab, bu yerdagi qarovsiz yerlarni o‘zlashtirdi, toshloq va unumsiz joylardan mo‘l hosil yetishtirdi. Shu tariqa xalqni ocharchilikdan olib chiqishga o‘zining munosib hissasini qo‘shdi.

Esimda, o‘sha paytlarda men 6-7 yashar bola edim. Qornimiz och, ustimiz esa yupun edi. Hatto qishda ham titilib ketgan eski paxtali ko‘ylakda, oyog‘imda onamning tagi yirtiq kalishi bilan yurardim. Poda boqar edim. Qo‘l-oyog‘im muzlasa, yugurib borib, gulxanda isinib olardim-da, yana otam aytgan yumushlarga unnardim. Bolalar ichida chayiri va tetigi bo‘lganim uchun kun ko‘rish maqsadida qanday mehnat bo‘lmasin, otamning yonida turib bajarardim. Mol boqish, echki sog‘ish, boshoq terish yoki yerni katta-katta xarsangtoshlardan tozalash bo‘ladimi — barchasini qilardim. Qornimiz ovqatga to‘ymasdi. Har kuni momom bir hovuchgina arpani tuyib, amallab non yopib berardi. O‘sha arpa nonni yeb, yana mehnat qilardik. Ba’zida dalada holsizlikdan ko‘zim tinib, hushdan ketardim. Yana o‘zimga kelib, dalada o‘sgan kavrak, chuchmoma va qorag‘at ildizlarini chaynab so‘rardim. Bu esa bir oz bo‘lsa-da, ochlikni bosardi. Shunday og‘ir ahvolda ham mehnatdan qochmasdik.



> **O‘tgan asrning 60-yillarida ko‘p qatori ularning oilasi ham Sherobod cho‘lini o‘zlashtirish maqsadida ko‘chiriladi. Shuncha qiyinchiliklar ham qaddini buka olmagan Egamshukur bobo 1963-yili cho‘l xo‘jaligida Mirzo Ulug‘bek nomidagi yetti yillik maktabni tashkil etishga bosh-qosh bo‘ldi.**



Egamshukur bobo og‘ir kechgan bolalik yillarini eslar ekan, o‘sha davr iztiroblari qalbini o‘rtab, ko‘zi yoshlandi va chuqur o‘yga toldi. Otaxonning urush yillaridagi hayoti ham oson kechmadi. Ikkinchi jahon urushi boshlangach, otasi birinchilar qatorida frontga otlandi, ammo harbiy komissariat uni front ortini oziq-ovqat bilan ta’minlash ishlariga safarbar etadi. Bu paytda o‘spirin yoshdagi Egamshukur otasi bilan birga frontni qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’minlash uchun kecha-yu kunduz tinmay dalada mehnat qildi.

— Nomi o‘chgur urushning ilk yillari. Hamma sarosimada. Bir burda non insondan ham qadrli bo‘lib ketgan davrlar edi, — deya xotirlaydi bobo. — Yosh-u qari, ayollar va bolalar qishloq xo‘jaligi yumushlariga jalb qilindi. “Hamma narsa front uchun!” shiori ostida bor hosilni terib-yig‘ib jo‘natardik. Dalada hosil qolmasdi, hatto yerga tushgan bir dona boshoqni ham terib olishga ruxsat yo‘q. Qishloq ahli och-nahor kun kechirardi. Biz, bolalar, hatto chumolining uyasini kovlab, undan chiqqan bir-yarim hovuch bug‘doy topsak, ola solib kavshardik. Onam sholi kurmagidan zog‘ora yopib bersa, o‘sha kuni qornimiz bir oz to‘ygandek bo‘lardi. Xullas, qimmatchilik va qahatchilik yillarini boshimizdan o‘tkazdik.

Garchi hayoti og‘ir sinovlarga to‘la bo‘lsa-da, Egamshukur bobo hamisha ilm olish va ma’rifatli bo‘lishga intildi. Urushdan keyin o‘rta maktabni bitirib, Termiz shahridagi O‘qituvchilar tayyorlash institutida o‘qidi. Keyin esa Buxoro davlat pedagogika institutining fizika va matematika fakultetida tahsil oldi.

O‘tgan asrning 60-yillarida ko‘p qatori ularning oilasi ham Sherobod cho‘lini o‘zlashtirish maqsadida ko‘chiriladi. Shuncha qiyinchiliklar ham qaddini buka olmagan Egamshukur bobo 1963-yili cho‘l xo‘jaligida Mirzo Ulug‘bek nomidagi yetti yillik maktabni tashkil etishga bosh-qosh bo‘ldi. Bu maktab dastlab yerto‘lada ish boshlagan bo‘lsa, keyinchalik yosh pedagogning jonbozligi tufayli zamonaviy ko‘rinishda qayta qurildi. 1969-yili xo‘jalikda 400 o‘rinli ikki qavatli maktab binosi qad rostladi.

— O‘sha og‘ir davrlarda maktab qurishning o‘zi bo‘lmasdi, — deydi bobo. — Dastlab yerto‘lada dars o‘tdik. O‘zimiz ham yerto‘lada yashardik. Tinimsiz afg‘on shamoli esib, qum xuddi yomg‘irday yog‘adi, ko‘z ochgani qo‘ymaydi. Boshimda bitta shlyapa, egnimda makintosh bilan tushgacha bolalarga dars berardim. Sharoit yo‘q: suv yo‘q, chiroq yo‘q. Tushdan keyin traktor chaqirtirib, maktab hovlisida yer kovlatardim. Toshloq yer bo‘lgani uchun ishlash juda qiyin edi. Bir oz ishlagach, traktorchi ham ketib qolardi. So‘ng qo‘lga ketmonni olib, bir-ikki o‘qituvchi bilan o‘zimiz yer kovlardik. Shunday azoblar bilan yerni toshdan tozalab daraxt ekardik, suv chiqarardik. O‘qituvchilar ham yetishmasdi. Uyimizga tun yarimlaganda qaytardik. Uyga borib ham tinim yo‘q edi: oilam qorib qo‘ygan loyni olib, oy yorug‘ida somonshuvoq qilib devor suvardim. Horib-charchab, bir-ikki soat uxlardim-u, yana tong otishi bilan makintoshimni kiyib, maktabga yo‘l olardim.

Shunday qiyinchiliklarga qaramay, o‘zi loydan ko‘targan maktabda bobo 23 yil davomida direktorlik qilib, qishloq bolalarini ilmli va savodli qilish yo‘lida bor kuch-g‘ayratini sarfladi.

1985-1986-yillarda esa Qarshi cho‘llarini o‘zlashtirish da’vatiga qalb amri bilan labbay deb javob bergan Egamshukur bobo qarindoshlari bilan birga Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi Surxon qishlog‘iga ko‘chib keladi. Qarangki, og‘ir sharoitlarda chiniqqan bobo bu yerda ham maktab qurish va tashkil etishda tashabbus ko‘rsatadi. Hamisha ma’rifat mash’alasini baland ko‘targan, yurt kelajagi bo‘lmish yoshlarning ilmli bo‘lishini chin dildan istagan Egamshukur bobo 1985-yildan buyon o‘zi bunyod etgan 24-maktabda o‘quvchilarga dars berib kelmoqda.

— Maktab — ikkinchi uyim, — deydi bobo mehr bilan. — Men maktabsiz, o‘quvchilarimsiz hayotimni tasavvur qila olmayman. Yaratgan menga qayta tanlash imkonini berganida ham, albatta, yana muallimlik kasbini tanlagan bo‘lardim. O‘sha og‘ir o‘smirlik davrlarimda otam: “Kel, qo‘y, bolam, menga yordam berib, dehqonchilik qil”, deganida: “Yo‘q, ota, nima bo‘lsa ham, qanchalik qiyin bo‘lmasin, albatta, o‘qituvchi bo‘laman!” deya ahd qilgan edim va bundan hech qachon afsuslanmaganman. Inson o‘z oldiga ezgu maqsad qo‘yib intilsa, ixlos bilan o‘qib-o‘rgansa, niyatiga yetadi. Men butun hayotim davomida shunga qat’iy amal qildim. Bugun esa mana shu zahmatli mehnatlarimning mevasini ko‘ryapman deb o‘ylayman.

Meni Egamshukur boboning hamon teran zehn va o‘tkir xotira sohibi ekani hayron qoldirdi. Fursatdan foydalanib, boboga o‘zimni qiziqtirgan savolni berdim:

— Bobo, 100 yoshdan oshsangiz ham shunchalik tetik va serg‘ayratsiz. Xo‘sh, bunday uzoq umr ko‘rishning siri nimada deb bilasiz?

— Bolam, bu savolni menga juda ko‘p berishadi. O‘ylaymanki, har bir inson o‘ziga ato etilgan umrni faqat ezgulikka sarflashni niyat qilishi kerak. Hayotimning asosiy qismi og‘ir pallalarga to‘g‘ri keldi: sargardonlik, ochlik, mashaqqatli mehnat... Ammo har qanday paytda ham odamlarga yaxshilik qilishni to‘xtatmadim, xalqimga foydam tegishini istadim. Kimgadir yordamim tegsa, avvalo, o‘zim chin dildan xursand bo‘laman. Yetmish besh yillik o‘qituvchilik faoliyatim davomida minglab shogirdlarimning hayotda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashdim. Hozir ta’lim berayotgan o‘quvchilarimning ota-onalariyu momo-bobolarini ham o‘qitganimdan faxrlanaman. Ular erishgan har bir muvaffaqiyatda mening ham mehnatim borligidan quvonaman. Mana shu quvonch, shukronalik va yaxshilikka intilish inson umrini, albatta, uzaytiradi deb o‘ylayman. Bugun shogirdlarimning ko‘pligidan, ularning e’zozida ekanimdan cheksiz mamnun bo‘laman. Ular meni hamon Toshkent, Surxondaryo, Buxoro va yurtimizning boshqa go‘shalaridan mehr bilan yo‘qlab keladi. Axir shuning o‘ziyoq bir muallim uchun eng buyuk baxt emasmi?!

Egamshukur boboning hayotbaxsh o‘gitlarini yurakka tugib qaytar ekanman, bugungi tinch va farovon hayotimizga, shunday ulug‘ insonlarning bosib o‘tgan umr yo‘liga har qancha havas qilsak, qancha shukrona aytsak kamligini yana bir bor his etdim. Bunday fidoyi muallimlarning nurli hayoti va zahmatli mehnati hamisha qadr topib, asrlar osha xalqimiz qalbida yashaydi.

Ehtirom

USTOZ – ILM ZANJIRINING TIRIK HALQASI

Har yili 1-oktabrda o‘zbek xalqi O‘qituvchi va murabbiylar kunini keng miqyosda nishonlaydi. Bu sananing davlat bayramlari qatoridan joy olgani hamda shu kuni hamma ustozlarni qutlashi bu yurtda ilm va ilm ahliga yuksak e’tibor bilan qaralishini yaqqol ko‘rsatadi. Men 2020-yildan buyon ushbu mamlakatda xizmat qilib, ta’lim dargohlarida talabalarga saboq berib kelmoqdaman.



Ahmad Sa’d DAMANHURIY,
Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi katta ilmiy xodimi

Ona yurtim Misrda maktab partasida o‘tirgan paytlarim hamon yodimda. O‘shanda har bir o‘quvchi Ahmad Shavqiyning quyidagi mashhur baytini xirgoyi qilib yurardi:

Mualliming oldida tik turib,
qilgin ta’zim,
Qariyb payg‘ambar kabi
maqomdadir muallim.

Bu bayt arab olamida asrlar davomida shakllangan ustozga hurmat qadriyatining qisqa ifodasidir. O‘zbekistonga kelganimdan so‘ng esa xuddi shu ruhni bu mamlakat odamlarining kundalik hayotida, shogirdlarning ustozi qarshisida katta hurmat-ehtirom bilan turishida ko‘rdim va qalbim quvonchga to‘ldi.

O‘zbekiston — islom ilmlari tarixida alohida o‘rin tutgan diyor. Hadis ilmining sultoni Imom Buxoriy, “Sunani Termiziy” sohibi Imom Termiziy, aqida ilmida ahli sunna val jamoaning buyuk imomi Abu Mansur Moturidiy, fiqh ilmida “Hidoya” asari bilan butun dunyo islom ilohiyotshunoslari uchun asosiy manbani bitgan Burhoniddin Marg‘inoniy, Abu Muin Nasafiy va Najmiddin Umar Nasafiy kabi daholar aynan shu tuproqdan yetishib chiqqan. Ularning asarlari bugun ham dunyoning ko‘plab ilm markazlarida o‘qitib kelinmoqda.

Bu allomalar o‘z-o‘zidan yetishib chiqmagan. Ulardan har birining ortida o‘nlab fidoyi ustozlar — sabr bilan dars bergan va shogirdining qalbiga ilm muhabbatini joylagan muallimlar turadi. Imom Moturidiyning Abu Nasr Iyodiy va Abu Bakr Juzjoniy kabi ustozlari orqali Imom A’zam Abu Hanifaga borib tutashgan ilm silsilasi buning yorqin misoli. Islom ilmiy an’anasida ilmning ustozdan shogirdga uzluksiz zanjir orqali yetib kelishi bejiz muqaddas sanalmagan. Mazkur zanjirning har bir halqasi bir ustozdir. Bugun ham har bir muallim ana shu zanjirning tirik halqasi, o‘tmish bilan kelajakni bog‘lab turuvchi mustahkam ko‘prikdir.

So‘nggi yillarda yangi O‘zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni kuzatib, bu yurtda ustozga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganiga guvoh bo‘ldim. O‘zbekiston Prezidenti ilgari surgan Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g‘oyasining markazida aynan ta’lim-tarbiya, ya’ni maktab, oliy o‘quv yurti va ustoz shaxsi turadi. Davlat rahbarining nutqlarida o‘qituvchi va murabbiylarning jamiyatdagi o‘rni, obro‘si va ijtimoiy himoyasi masalalari muntazam ko‘tarib kelinayotgani ham buning dalilidir.



Yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda pedagog xodimlarning huquq va kafolatlari, ularning kasbiy sha’ni va qadr-qimmati qonun himoyasiga olingan bo‘lib, o‘qituvchilarni o‘z vazifasiga aloqador bo‘lmagan ishlarga jalb etilmasligi qat’iy belgilab qo‘yilgan. Bu ustozning vaqti va mehnati, eng avvalo, shogirdlarga bilim berishga sarflanishi kerak, degan adolatli tamoyilning huquqiy ifodasidir.

Pedagoglarning mehnatiga munosib haq to‘lash, ularning malakasini oshirish, milliy va xalqaro sertifikatlarga ega o‘qituvchilarni rag‘batlantirish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Yangi maktablar va zamonaviy o‘quv binolari qurilayotgani, ta’lim muassasalarining raqamli texnologiyalar bilan jihozlanayotgani esa muallimlarning o‘z mahoratini to‘la namoyon etishi uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Men uchun, ayniqsa, qadrlisi O‘zbekistonda islomshunoslik va diniy-ma’rifiy ta’lim sohasida qilinayotgan ishlardir. O‘zim faoliyat yuritayotgan Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi 2020-yilda tashkil etilgan. Shu tariqa men ushbu muassasaning dastlabki qadamlaridan tortib, bugungi ilmiy yutuqlariga qadar bo‘lgan yo‘lda ishtirok etish baxtiga muyassar bo‘ldim.

Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi moturidiylik ta’limotini chuqur o‘rganish, bu yo‘nalishdagi allomalarning hayoti va ilmiy merosini tadqiq etish, noyob qo‘lyozmalarning yangi ilmiy-tanqidiy matnini nashr etish, tarjima va targ‘ib qilish vazifalarini bajarmoqda. Yurt kelajagi bo‘lgan yoshlarga aqida va kalom ilmi hamda mumtoz qo‘lyozma manbalarni o‘qish ko‘nikmalarini o‘rgatar ekanman, ularning ilmga chanqoqligi, zakovati va odobi meni doimo hayratga soladi.


Toshkentda barpo etilgan O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, shuningdek, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari va boshqa allomalar nomidagi markazlar mamlakatning boy ilmiy merosini jahonga tanitish bilan birga yangi avlod ustozlarini tayyorlashga ham xizmat qilmoqda. Xorijiy ilmiy markazlar bilan yo‘lga qo‘yilgan hamkorlik, xalqaro konferensiyalar, olimlar almashinuvi va qo‘shma nashrlar esa O‘zbekistonni islom ilm-fanining nufuzli markazlaridan biriga aylantirmoqda. Men ham ana shu hamkorlik ko‘prigining bir bo‘lagi ekanimdan faxrlanaman.

Bugungi murakkab dunyoda turli buzg‘unchi g‘oyalar yoshlar ongini egallashga urinayotgan bir paytda chuqur va asosli ta’limning ahamiyati har qachongidan ham yuqori. “Jaholatga qarshi ma’rifat” tamoyili bu borada eng to‘g‘ri yo‘l ekanini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda. Imom Moturidiy ta’limotining asosiy xususiyatlaridan biri mo‘tadillik, bag‘rikenglik va har qanday bid’at-xurofotdan yiroqlikdir. Bu ta’limotni to‘g‘ri o‘qitish, uni yoshlar qalbiga yetkazish esa, avvalo, ilmli, dunyoqarashi keng va o‘z shaxsiy namunasi bilan ibrat bo‘la oladigan ustozlar zimmasida.

Chunki shogird ustozdan faqat bilim emas, balki xulq, odob va hayotga munosabatni ham o‘rganadi. Ulug‘larimiz o‘z farzandlarini ustozga topshirar ekan, “Unga ilmdan oldin adab o‘rgating”, deya iltimos qilgani bejiz emas. Imom Molikning onasi o‘g‘lini ustoz huzuriga yuborayotib, avvalo, undan odobni, keyin esa ilm o‘rganishni tayinlagani haqidagi rivoyat ham ayni shu haqiqatni ifodalaydi.

O‘tgan olti yil davomida O‘zbekiston men uchun ona vatanim kabi yaqin bo‘lib qoldi. Bu yurtda men nafaqat ustoz, balki doimo o‘rganuvchi shogird ham bo‘ldim. O‘zbek xalqining mehmondo‘stligi, mehr-oqibati, kattaga hurmat va kichikka izzat kabi go‘zal an’analaridan, shuningdek, bu diyor olimlarining kamtarligi hamda fidoyiligidan ko‘p narsani o‘rgandim. Menga ushbu tabarruk zaminda ilmiy va pedagogik faoliyat yuritish imkonini bergan O‘zbekiston rahbariyatiga, o‘zim faoliyat bilan shug‘ullanayotgan muassasalar rahbariyati va jamoalariga, qolaversa, barcha hamkasblarimga samimiy minnatdorligimni izhor etaman.

Shu kunlarda o‘zbek maktablari, oliy o‘quv yurtlari hamda madrasalarida mashaqqatli va g‘oyat sharafli mehnat qilayotgan barcha ustoz hamda murabbiylarni, shuningdek, butun umrini ta’lim-tarbiyaga bag‘ishlagan faxriy o‘qituvchilarni O‘qituvchi va murabbiylar kuni bilan chin qalbimdan tabriklayman. Parvardigor barchangizga sihat-salomatlik, mehnatingizga baraka bersin, shogirdlaringizning yutuqlarini ko‘rishni nasib etsin. Ilm zanjiri hech qachon uzilmasin, ustozlar qadri hamisha baland bo‘lsin!



Mulohaza

BOLALAR KITOB O‘QIMAYAPTI(MI)?

Bekqul EGAMQULOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Bir do‘stimiz joriy o‘quv yili boshida 8-sinfda o‘qiyotgan o‘g‘lini Buxoroning Qorako‘l tumanidagi xususiy maktabga joylashtirib keldi. Bu maktabda o‘qish pulli, qolaversa, o‘g‘li oiladan, ota-onasidan uzoqda yashaydi, qiynalishi, zerikishi mumkin. Lekin ota o‘g‘lining bilim olishini, kelajakda qiynalmasligini, hayotda o‘z yo‘lini topib ketishini istaydi. Shuning uchun ham bu ishga qo‘l urdi. U tavakkal qilmadi, balki o‘ylab-o‘ylab shu qarorga keldi. Darvoqe, tashabbus o‘g‘lining o‘zidan chiqqan. Shunday qilib, do‘stimizning o‘g‘li bugun poytaxtdan salkam 650 kilometr yiroqdagi maktabda bilim olmoqda.

Qiziq holat, shunday emasmi? Odatda, ko‘pchilik yoshlar bilim olish maqsadida o‘z qishlog‘ini tashlab, shaharga yo‘l oladi. Yuqoridagi holatda esa o‘quvchi barcha imkoniyatga ega katta shaharni tark etib, yurtimizning chekka tumanidagi bir maktabga ketdi.

Nega bu voqeani esladim? Gap shundaki, keyingi paytlarda odamlar o‘rtasidagi muloqotlarda, suhbat va uchrashuvlarda “Bolalar o‘qimay qo‘ydi” degan bahsli mulohazalar ko‘p aytiladigan bo‘lib qoldi. Xo‘sh, haqiqatan shundaymi? Rostdan ham hozirgi avlod o‘qimay qo‘ydimi? Bolalar savodsiz bo‘lib voyaga yetyaptimi?

Keling, ushbu savollarga javob topish uchun atrofga bir nazar tashlab, mamlakatimiz ta’lim tizimidagi holat va jarayonlarni tahlil qilib ko‘raylik.

Kutubxonalarda joy yo‘q

Hozir dunyoda, jumladan, O‘zbekistondagi yoshlar hayotida ham juda qiziq jarayon kechmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar farzandlarimizning vaqtini band etayotgani va tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani bor gap. Aslida, ijtimoiy tarmoqlar faqat o‘quvchilar, o‘smirlar va yoshlarni emas, balki beshikdagi go‘dakdan tortib, yetmish-sakson yoshni qoralagan kampir-u chollarni, dalada dehqonchilik qilayotgan dehqondan tortib, ko‘chada kirakashlik qilayotgan haydovchilarni ham domiga tortib bo‘lgan. Bunga isbot izlab yurish shart emas, e’tiroz bildirishga ham o‘rin yo‘q. Har qadamda bu holatga duch kelyapmiz. Ijtimoiy tarmoqlarda bugun har bir soha vakillarining, bundan tashqari, qarindoshlar, sinfdoshlar, kursdoshlar va armiyada birga xizmat qilgan safdoshlarning muntazam muloqot qilib turadigan o‘z guruhlari bor.

Lekin shunday sharoitda ham o‘qiyman degan bola o‘qiyapti, izlanyapti, foydali mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanyapti. Ulardan biri haqida yuqorida aytib o‘tdik: u ilm o‘rganish maqsadida uyidan olis bir tumanga yo‘l olgan. Qolaversa, maktablarga borib ko‘ring, o‘quvchilar va o‘qituvchilar bilan gaplashing. Bu dargohga chin ma’noda o‘qish istagida borayotgan o‘g‘il-qizlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Ular o‘qituvchilari atrofida birlashib, kitob o‘qiyapti, turli mashg‘ulotlarga qatnayapti, qo‘shimcha darslarga boryapti.

Albatta, ota-onasidan qo‘rqib yoki ularning zo‘rlovi va qistovi bilan maktabga keladiganlar, o‘qishni ikkinchi darajali ish yoki ortiqcha yumush deb biladiganlar borligini ham inkor etib bo‘lmaydi. Lekin ular unchalik ko‘p emas, nazarimda. Aksariyat bolalar o‘qishni, hunar o‘rganishni va kelajakda yaxshi kasb egasi bo‘lishni istaydi.

Keyingi bir yilda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasiga uch-to‘rt marta bordim. Kutubxonada o‘tirib kitob o‘qishga joy yo‘q, o‘rindiqlarning barchasi band. Kimlardir hatto yerda o‘tirib, kitob mutolaa qilyapti. Demoqchimizki, kitob o‘qiyotganlar juda ko‘p. Ayrimlar badiiy asarlarni va o‘ziga kerakli adabiyotlarni smartfoni yoki noutbukiga yuklab olgan. Shuning uchun ular yo‘lda ham, metroda ham, uyda ham bu kitoblardan bemalol foydalanmoqda.

Poytaxtimizdagi boshqa kutubxona va axborot-resurs markazlarida ham ahvol shunday: kitob o‘qishga joy yetishmaydi.

— Kitob dunyodagi eng bebaho, nondek aziz ne’matlardan, — deydi Toshkent shahridagi “Bilim” axborot-kutubxona markazi direktori, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori Hafiza Karimova. — Bola qalbidagi eng go‘zal tuyg‘ular va chin insoniy fazilatlar badiiy asarlar hamda kitoblar mutolaasi orqali asta-sekin shakllanib boradi. Yoshlar qaysi sohani tanlamasin, oldiga qo‘ygan maqsadi va orzusini amalga oshirish uchun, albatta, kitobga murojaat qiladi. Bugun kutubxonaga mutolaa uchun kelayotganlarning aksariyatini maktab o‘quvchilari va talabalar tashkil etadi. Ularning ilmga, o‘qishga intilishini ko‘rib, havasim keladi.

O‘tmishga nazar

Ba’zilarning fikricha, ilgari, ayniqsa, sho‘rolar davrida odamlarda kitob o‘qishga ishtiyoq juda baland bo‘lgan. Shuning uchun ham kitoblar bugungidek 500, 1000 yoki 2000 nusxada emas, balki 50-100 ming adadda chop etilgan. Taniqli shoir va yozuvchilarning kitoblari do‘konlarda hatto yashirincha sotilgan.

To‘g‘ri, o‘sha paytda badiiy adabiyot o‘qishga qiziqish nisbatan kuchli edi. Odamlar kitob do‘konlaridan o‘zi yaxshi ko‘rgan asarlarni izlab topib o‘qirdi. Lekin maktab dasturlari va darsliklarni o‘qish hamda o‘zlashtirish hozirgi darajadan baland emasdi. Xulosa shuki, o‘sha paytlarda ham o‘qishni istaganlar o‘qigan, istamaganlar esa yo‘q.

Gap isboti bilan. Bir do‘stimning aytishicha, 1977-yili 10-sinfni 50 o‘quvchi bitirgan. Shuncha yigit-qizdan bor-yo‘g‘i to‘rt nafari institutga o‘qishga kirib, oliy ma’lumotli bo‘lgan. O‘sha to‘rt o‘quvchining ikki nafari ham maktabni bitirgan yili emas, balki keyingi yili oliy o‘quv yurtiga kirgan. “Sinfdoshlarimiz orasida o‘qishga kelmay, qo‘y boqib yuradiganlar ham, otasining o‘rniga dalaga ishga chiqadiganlar ham, shunchaki o‘qishni istamaydiganlar ham bor edi, — deydi do‘stim. — Maktabni bitirgandan so‘ng ularning ayrimlari xo‘jalikda traktorchi, brigadir, suvchi, oddiy ishchi bo‘lib ishladi. Maoshi tirikchiligiga yetmaganidan noliganlari ham bo‘ldi”.

Xo‘sh, bu borada bugungi ahvol qanday? Tan olib aytish kerak, hozir ayrim maktablarning bitiruvchilari yuz foiz oliy o‘quv yurtlari talabasi bo‘lmoqda. Albatta, keyingi yillarda oliy ta’lim muassasalari soni nisbatan ancha ko‘paydi, lekin bu bir maktab o‘quvchilarining yuz foiz o‘qishga kirishiga asosiy sabab shu bo‘ldi deyish noto‘g‘ri.

Haqli xavotir

Bu yilgi o‘qishga kirish jarayoni yoshlarimizning ko‘pchiligi bilim olishni muhim maqsad sifatida ko‘rayotganini tasdiqladi. Joriy yilda mamlakatimiz maktablarini salkam 500 ming o‘quvchi bitirdi. Ularning 333 ming 463 nafari oliy ta’lim muassasalariga kirish test sinovlarida ishtirok etdi. Bu — har 100 bitiruvchidan taxminan 73 nafari oliy ma’lumot egasi bo‘lishga qaror qilgan deganidir. Ular to‘plagan o‘rtacha ball ham avvalgi yillardagiga qaraganda sezilarli darajada yaxshilanib, 92,5 ballni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yili 80,9 ball edi.



Maktablardagi ta’lim sifatini hududlar misolida olib ko‘rsak, quyidagi manzara hosil bo‘ladi. Joriy yilda Navoiy viloyati maktablarini bitirgan o‘quvchilarning 52,5 foizi, Buxoro viloyati maktablarini bitirgan o‘quvchilarning 37,9 foizi oliy o‘quv yurti talabasi bo‘lgan. Kuchli uchlikni Jizzax viloyati maktablari bitiruvchilari yakunlagan — 35,9 foiz.

Ko‘rinib turibdiki, bu yil talaba bo‘lish uchun raqobat nafaqat katta, balki juda yuqori bo‘lgan. Jumladan, 4825 bitiruvchi 189 ball, ya’ni maksimal natijani qayd etgan. 2025-yilda bunday bitiruvchilar soni 619 nafarni tashkil qilgan edi. Qarang, maksimal ball qayd etganlar soni bir yilda 8 barobar ko‘payibdi. Bu natijaga faqat test tizimi nuqtayi nazaridan emas, balki yoshlarning fanlarni chuqur o‘zlashtirishga intilishi nuqtayi nazaridan ham qarash lozim. Darvoqe, joriy yilda barcha fandan tegishli sertifikatga ega abituriyentlar test sinovlaridan ozod qilinib, to‘g‘ridan to‘g‘ri tanlov bosqichiga o‘tkazildi.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri yaqinda muxbirlarga bergan intervyularidan birida Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida bu yilgi qabul vaqtida kuzatilgan holat haqida gapirib o‘tdi va hayratini yashirmadi. Uning aytishicha, universitetga 550 abituriyent qabul qilinishi kerak edi. Lekin 3200 abituriyent maksimal — 189 ball to‘plab, talaba bo‘libdi.

Kelgusi yili maksimal ball to‘playdiganlar soni bundan ham ko‘p bo‘ladi, bunga shubha yo‘q. Shunday holatda, agar yetakchi oliy ta’lim muassasalarining har biriga o‘rtacha 5000 dan abituriyent hujjat topshirib, hammasi maksimal ball to‘plasa, ahvol nima kechadi? 500 o‘ringa 5000 talaba qabul qilinaveradimi? Oliy ta’lim muassasalarida ular uchun yetarli sharoit yaratilganmi? O‘qituvchilar va auditoriyalar yetarlimi? Viloyatlardan kelgan talabalar uchun yotoqxonalar bormi? Bu savollar mutasaddilarning haqli xavotiriga sabab bo‘lishi tabiiy.

Xususiy maktabda ta’lim olmoqchimisiz?

Keyingi yillarda yurtimizda davlat maktablari qatorida xususiy maktablar ham ko‘payib bormoqda. Ma’lumotlarga qaraganda, birgina Toshkent shahrining o‘zida 100 dan ziyod xususiy maktab bor. Ulardagi to‘lov oyiga taxminan o‘rtacha 4 million so‘mdan 25 million so‘mgacha. O‘sha maktablar haqidagi xabar ijtimoiy tarmoqlarda rosa ommalashgani uchun ro‘yxatni keltirishni lozim topmadik. Viloyatlarda ham ko‘plab xususiy maktablar ochilmoqda. Ulardagi narx Toshkentdagiga nisbatan bir oz past bo‘lishi mumkin.

Nima uchun xususiy maktablar va ulardagi ta’lim narxi haqida so‘z ochganimizni tushungan bo‘lsangiz kerak. Mana shu maktablarga o‘g‘il yoki qizingizni joylashtirmoqchi bo‘lsangiz, ancha ter to‘kishingizga to‘g‘ri keladi. Chunki ularda ko‘pincha bo‘sh o‘rin bo‘lmaydi. Ishonmasangiz, telefon raqamlarini topib, qo‘ng‘iroq qilib ko‘ring. Bu bugun ko‘plab yoshlarimiz barcha imkoniyatga ega, xorijlik o‘qituvchilar dars beradigan maktablarda ta’lim olishni istayotgani dalolatidir.

Bilim ortidan dunyo sari

Bugun o‘zbek yoshlarining orzulari allaqachon dunyoga yuz tutgan. Ular jahonning eng nufuzli oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirib, zamonaviy ilm-fan va texnologiya sirlarini o‘rganmoqda. Masalan, o‘tgan yilning yanvar-oktyabr oylarida xorijga 26,4 ming, jumladan, Rossiyaga 5836, Janubiy Koreyaga 3344, Turkiyaga 2256, Buyuk Britaniyaga 839, Germaniyaga 366 va AQSHga 318 yigit-qiz bilim olish maqsadida yo‘l olgan.

Prezident ta’lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan maktablar yoki oddiy qishloq maktabini tugatib, grant asosida dunyodagi eng nufuzli oliy o‘quv yurtlarida o‘qiyotgan yoshlarimiz qancha! Bu yoshlarning qiziqishi turlicha, albatta. Kimdir sun’iy intellekt va dasturlash sohasida tadqiqot olib borsa, yana kimdir tibbiyot, iqtisodiyot, xalqaro munosabatlar yoki muhandislik yo‘nalishida bilim olmoqda. Ammo ularni birlashtirib turadigan umumiy jihat bor: ularning aksariyati bilimni faqat shaxsiy manfaat uchun emas, balki kengroq maqsadlar yo‘lida sarflashga intilmoqda. Ular olgan bilimi va tajribasini Vatan taraqqiyotiga yo‘naltirish, yangi texnologiyalarni O‘zbekistonga olib kirish, zamonaviy biznes hamda ilmiy loyihalarni rivojlantirish va yosh avlodga o‘z tajribasini o‘rgatishni maqsad qilgan.

Bir misol keltiraman. Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanida tug‘ilgan Shodiyorxon Abdivoyitov Garvard universitetini tugatgan. U bemalol AQSHda qolishi yoki Yevropaning birorta davlatiga borib, yirik kompaniyalardan birida ishlashi mumkin edi. Buning uchun uning bilimi ham, iqtidori ham, imkoniyati ham yetarli edi. Lekin Shodiyorxon o‘z yurtida ishlashga qaror qildi. Uning ta’lim sohasidagi tashabbuslari bugun ko‘plab yoshlarga ilhom bermoqda.

Ulug‘ maqsadlar yo‘lida

Oliy ma’lumot olishga intilish ortishi tabiiy ravishda “Bu ehtiyoj kitobxonlikda ham ko‘rinyaptimi?” degan savolni keltirib chiqaradi. Keyingi yillarda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan “Yosh kitobxon” tanlovi muntazam o‘tkazib kelinmoqda. Unda yuz minglab o‘g‘il-qizlar ishtirok etmoqda. Bu esa bugun o‘quvchi va talabalar bevosita kitob mutolaasi bilan band ekanini anglatadi.

Bundan tashqari, “Yosh kitobxon oila” tanlovi ham yildan yilga ommalashib bormoqda. 2024-yilda bu tanlovda 94 ming oila qatnashgan bo‘lsa, joriy yilda qariyb 96 ming yosh oila ishtirok etish uchun onlayn ro‘yxatdan o‘tgan.

To‘g‘ri, tanlovda qatnashish ko‘rsatkichini barcha yoshlarning kitob o‘qish darajasi sifatida qabul qilib bo‘lmaydi. Ammo bu yurtimizda kitob o‘qishga qiziquvchi yoshlar borligini va ularning safi tobora kengayib borayotganini anglatadi.

Joriy yil boshida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan yangi chora-tadbirlar belgilandi. Xususan, Prezidentimizning “Yangi O‘zbekiston yoshlari — 2030” strategiyasini tasdiqlash hamda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan tasdiqlangan “Yangi O‘zbekiston yoshlari — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturida eng ko‘p kitob o‘qigan o‘quvchi va talabalar o‘rtasida “TOP-100 kitobxon” tanlovini o‘tkazish hamda g‘oliblarni rag‘batlantirish nazarda tutildi. Har bir g‘olibga bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravari miqdorida mukofot berilishi belgilangan. Yana bir muhim maqsad yoshlarning kitobxonlik ko‘rsatkichini yiliga o‘rtacha 12 ta kitobga yetkazish va elektron kitob platformalaridan foydalanish qamrovini kengaytirishdir.

To‘g‘ri, butun yurtimizda hamma yosh kitob o‘qiyapti degan xulosaga kelishga hali erta. 2025-2026-yillarda “Ijtimoiy fikr” markazi tomonidan o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, respondentlarning 16,4 foizi har kuni, 16,5 foizi esa haftada bir necha marta kitob o‘qishini aytgan. Bu raqamlar biz kutgandan ancha past. O‘quvchilar orasida hozirgi olim, yozuvchi va shoirlarimiz u yoqda tursin, Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino, Forobiy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi dunyo tan olgan buyuk ajdodlarimizni, yurtimiz ozodligi uchun kurashgan jadid ma’rifatparvarlarini ham bilmaydiganlar uchrab turadi.

Shunday bo‘lsa-da, xavotirlanishga asos yo‘q. Chunki keyingi yillarda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish borasida qilinayotgan ishlar o‘zining ijobiy natijalarini bera boshladi. So‘rovnomaga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, har kuni kitob o‘qiydiganlar ulushi 2025-yildagi 10,2 foizdan 2026-yilda 16,4 foizga oshgan. Demak, ijtimoiy tarmoqlarning zararli jihatlarini tushunib borayotgan va kitob o‘qishga ishtiyoqi ortayotganlar soni bir yilda 6,2 foiz ko‘paygan. Shu o‘rinda so‘rovnomada qatnashganlarning ko‘pi aynan badiiy kitob o‘qish masalasida fikr bildirganini ham e’tiborga olish lozim.

Bundan xulosa qilish mumkinki, O‘zbekistonda kitob mutolaasi bilan shug‘ullanayotgan yoshlar safi kengayib bormoqda. Zero, kitob o‘qiyotgan avlod faqat bugunning o‘quvchisi emas, balki ertangi kunning yetuk mutaxassisi, olimi, muhandisi, shifokori, o‘qituvchisi, tadbirkori va rahbarlari. Boshqacha ta’riflasak, ular mamlakatning ertangi intellektual salohiyatidir.

Gapimizga nuqta qo‘yishdan oldin sarlavhadagi asosiy savolga yana bir bor to‘xtalib o‘tsak: bolalar kitob o‘qimayaptimi?

Hech bir soha vakili kitob o‘qimay, kitobga oshno bo‘lmay turib, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erisha olmaydi. Ilm olmay, kasb sirlarini o‘rganmay, ilmiy asarlar va yangiliklarga tayanmay, biror ixtiro qilish juda qiyin.

Albatta, telefon va turli ijtimoiy tarmoqlar rivojlangan bugungi davrda kitob mutolaasi o‘z ahamiyatini yo‘qotib qo‘yishi mumkin degan xavotirlar ham yo‘q emas. Ammo kutubxonalarimizdagi tirbandlik, qimmat bo‘lsa-da, xususiy maktablarda bo‘sh joyning yo‘qligi, maktab bitiruvchilarining katta qismi oliy o‘quv yurtlariga kirishga intilayotgani, xorijdagi yetakchi universitetlarda o‘qishni istayotganlar sonining yil sayin ko‘payib borayotgani, yoshlarning kitobxonlik tanlovlaridagi faol ishtiroki, milliy va xalqaro sertifikatlarga qiziqishi hamda yuqori natijalarga intilishi mutlaqo boshqa manzarani ko‘rsatmoqda. Ularning ko‘pi o‘qiyapti, izlanyapti va ulug‘vor maqsadlar bilan yashayapti.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-946.
29323 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Веб-сайт: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60